

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 61 (1122), 2024-yil 27-mart, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



HALOL MEHNAT VA OQILONA TADBIRKORLIK BILAN ODAMLAR HAYOTI O‘ZGARYAPTI, BANDLIGI TA‘MINLANIB, DAROMADI YAKSHILANYAPTI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-26-mart kunlari Namangan viloyatida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari tashrifning ikkinchi kuni Namangan viloyatini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Odamlarning mehnati va tadbirkorligi bilan Namanganda hayot o‘zgarayotgani qayd etildi. Oxirgi yetti yilda viloyat iqtisodiyoti 2 barobar, eksport 3 karra o‘shib, aholi jon boshiga daromad 15,5 million so‘mga yetgan. 65 trillion so‘m investitsiya hisobiga 600 ming ish o‘mi yaratilgan.

Leikin hali ko‘p imkoniyatlar ishga solinmagan, joylarda kamchiliklar ham bor. Masalan, viloyat eksportining 86 foizi to‘qimachilik va meva-sabzavotchilik hissasiga to‘g‘ri keladi. Pop, Chortoq, Norin va Yangiqo‘rg‘onda sanoatlashish darajasi past. Viloyatda 56 ming tomorqada mahsulot yetishtirilmayapti.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda shu kabi muammolar tahlil qilinib, imkoniyatlarni to‘liq ishga solish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari eng asosiy masala aholi bandligini ta‘minlash va daromadini oshirish ekanini ta‘kidladi.

Sayxunobod tajribasi asosida Namanganda ham katta harakat boshlangan. Viloyatning 14 ta tumanidagi 788 ta mahallaga bank filiallari biriktirilgan. Ular “mahalla yetiligi” bilan birga xonadonlardagi imkoniyatlarni, oilaning xohish-istaklarini o‘rganmoqda.

Birinchisi bosqichda kam daromadli 4 mingta xonadon tanlab olinib, oila a‘zolari jon boshiga oylik daromadni 2 million so‘mgacha oshirish choralarini ko‘riladi. Keyingi bosqichda yana 4 mingtaga moliyaviy, texnik, maslahat va boshqa ko‘rinishdagi amaliy yordam beriladi. Mahallalarda gulchilik, baliqchilik, asalarichilik, chorvachilik, uzum-

chilik, qulupnay va kartoshka yetishtirish imkoniyati, ayniqsa, yaxshi. Bunga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

— Bu ishlarni kim qilishi kerak? Prezident vakili bo‘lgan hokimlar, sektor rahbarlari, 5 mingdan ortiq iqtisodiy idora xodimlari, mahalladagi “yettilik” qilishi lozim. Buning uchun barcha mas’ullar har bir korxonaga, tadbirkor va xonadon bilan yaqindan ishlaydigan tizimni yo‘lga qo‘yishi kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

So‘nggi yillarda to‘qimachilikda xomashyoni to‘liq qayta ishlash yo‘lga qo‘yilib, eksport hajmi 1 milliarddan 4 milliard dollarga ko‘paydi. Xuddi shunday, zargarlikda ham salohiyat hozirgidan ancha yuqori. Yurtimizda yiliga 100 tonna oltin qazib olinmoqda. Lekin uning atigi 6 foizi qayta ishlanib, bor-yo‘g‘i 78 million dollar eksport bo‘lgan.

Shu bois, tadbirkorlar uchun alohida sharoitlarga ega zargarlik zonalarini tashkil qilinishi aytiladi. Sohaga xomashyo yetkazish, mutaxassis tayyorlash, ishlab chiqarish zanjiri va sotish tizimi butunlay qayta ko‘rib chiqiladi. Bu borada qonunchilikka ham takliflar kiritiladi.

To‘la foydalanilmayotgan imkoniyatlar yana yo‘llar va turizmdir. Angren shahridan to‘ra qo‘rg‘ongacha 100 kilometr yuriladi, avtomobil oqimi kuniga 10 mingdan oshadi. Tadbirkorlar bu yo‘l bo‘yida oshxonalar, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ko‘paytirib, 10 ming aholi doimiy band qilishga tayyor. Buni tartibli tashkil qilish uchun master-reja ishlab chiqib, yerlarni auksionga chiqarish vazifasi qo‘yildi.

Namangan viloyatining tog‘li va xushmanzara hududlarida turizmini rivojlantirish,

sayyohlarga qulaylik yaratish uchun avia va temir yo‘li qatnovlarini ko‘paytirish zarurligi aytiladi.

Viloyatda sanoat salohiyati ham yuqori. So‘nggi yillarda 72 ta kichik va yoshlar sanoat zonalarini ishga tushirdi.

Lekin 16 ta sanoat zonasida 78 gektarda qo‘shimcha loyiha joylashtirish imkoniyati bor. 29 ta noruda koniga sanoat kirib bormagan. Viloyatning qo‘shni davlatlarga eksporti 568 million dollar. Bu bor imkoniyatga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Shu bois, konlarni savdoga chiqarish, qo‘shimcha bojxona postlari va savdo uylari ochish, Namangan xalqaro aeroportida yuk terminali va Qamchiq dovoniga yaqin joyda logistika markazi tashkil etish choralarini belgilandi. To‘qimachilik, charm-poyabzal, zargarlik, elektr texnikasi, qurilish materiallari tarmoqlaridagi loyihalar bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Kuni kecha Norin daryosida GESlar kaskadi, Pop tumanida ming megavattli 2 ta quyosh elektr stansiyasi qurilishi boshlandi. Kelgusi yilda Katta Andijon kanalida 51 megavattli kichik GESlar kaskadi ham ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Buni davom ettirib, gidroenergetikani har bir soy, har bir mahallaga olib kiradigan tizim qilish muhimligi qayd etildi.

Qishloq xo‘jaligidagi masalalar muhokama qilinarkan, kanallarni betonlash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish ishlari mutlaqo qoniqarsiz ekanini ko‘rsatib o‘tiladi.

Uchqo‘rg‘on, Pop, Uychi va Mingbuloqda Sloveniya tajribasi asosida intensiv baliqchilik yo‘lga qo‘yilishi, bu tarmoqda 4 ta yirik loyiha ishga tushirilishi aytiladi.

Namanganda 1,5 million tonna mevasabzavotdan 10 foizi eksport qilingan. Agar

ish to‘g‘ri tashkil qilinsa, eksportini 3-5 barobar oshirish mumkin. Shu maqsadda viloyat mevasabzavot eksporti geografiyasi Xitoy, Germaniya, Italiya, Ispaniya va Arab davlatlariga kengaytiriladi. 54 ming gektar yerning agrokimyoviy xaritasi ishlab chiqilib, 18 ming gektari “GSP+” talablariga moslashtiriladi.

Viloyatda mevasabzavot, go‘sh va sutni qayta ishlash darajasi ham kam. Masalan, Kosonsoy va Chortoq mevasabzavotchilikka ixtisoslashgan bo‘lsa-da, birorta qayta ishlash korxonasi yo‘q.

Shu bois, bu yo‘nalishda 141 million dollarlik 62 ta loyiha ishga tushiriladi. Kosonsoy va Popda yirik chorvachilik klasterlari tashkil etiladi.

Shahar va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash vazifalari ham juda muhim. Bugungi kunda 200 ming aholi uchun Yangi Namangan shahri qurilmoqda. Endi Chust va Pop tumanida 10 ming aholi uchun “Yangi O‘zbekiston” massivlari, yana 20 ming xonadonli turar joylar, IT-park va bog‘ barpo etiladi.

Tumanlarda ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash, yo‘llar qurish va ta‘mirlash vazifalari belgilandi.

Viloyatdagi 16 ta ixtisoslashgan tibbiyot markazi negizida ikkita — birinchi va ikkinchi Namangan tibbiyot markazlari tashkil etiladi. Bunda shoshilinch va boshqa tibbiy xizmatlar, diagnostik tekshiruvlar hamda tor soha mutaxassislarini bir joyga jamlash, aholiga tunu kun xizmat ko‘rsatish imkonini yaratiladi.

Oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim sifatini oshirish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta‘minlash vazifalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan viloyat va tuman hokimlari, vazirlar axborot berdi. Videoaloqa orqali tumanlar

jamoatchiligi bilan samimiy muloqot bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yilda To‘raqo‘rg‘on tumanida Is‘hoqxon ibrat nomidagi ijod maktabi, bog‘ va muzey barpo etilgan edi.

Shavkat Mirziyoyev 2021-yilda namanganlik saylovchilar bilan uchrashuvda jadal bobomid nomida chet tillari oliygohi tashkil qilish maqsadini aytdi. Bu hayotga ko‘chib, 2022-yilda To‘raqo‘rg‘on tumanida shunday institut tashkil topdi.

Institutda jahon tillari fakulteti, 6 ta kafedra va 16 ta ta‘lim yo‘nalishi bor. Hozirda ikki bosqichda 1 ming 523 nafar talaba saboq o‘lmoqda. Kelgusi yillarda ularning soni yana ortadi.

Shuning uchun Yangi Namangan hududida 5 gektar joyda oliygoh uchun yangi kampus qurilmoqda.

Prezidentimiz ushbu buniyodkorlik ishlari ko‘zdan kechirdi.

Hozirda ming o‘rinli o‘quv binosi, sport zali, oshxona qad rostlagan. Ularni shu yil avgustda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Keyingi bosqichlarda talabalar yotoqxonasi va yana bir o‘quv binosi barpo qilinishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz shu yerda Yangi Namangan shahri bosqichlari bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Uning qurilishi ikki yil oldin boshlangan edi. Bugungi kunda 2 ming 764 ta xonadonli ko‘p qavatli uy-joylar barpo etilgan, yana 648 ta xonadonli uylar qurilmoqda.

Bu shahar 200 ming aholiga mo‘ljallangan. Unda bog‘cha, maktab va boshqa ijtimoiy muassasalar, ish o‘rinlari uchun sanoat zonasini barpo etiladi. “Yangi O‘zbekiston bog‘i” ham shu yerda barpo etiladi.

Davlatimiz rahbari bu qulaylik, xavfsizlik, sifatli ekspluatatsiyani mujassam etgan aqlli shahar bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi. Shu bois, loyihani yana bir bor sinchiklab ko‘rib chiqish, sifat nazoratini kuchaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan xalqaro aeroportini modernizatsiya qilish loyihasi bilan tanishdi.

Farg‘ona vodiysidan mamlakatimiz volahariga dovon orqali o‘tiladi. Poyezd qatnovlari hamma yo‘nalishlarda ham emas. Shu bois, mazkur aeroport infratuzilmasini yangilashni hayotning o‘zi taqozo qilmoqda. Bu tadbirkorlik, transport xizmatlari va turizm rivojiga katta turki beradi.

Loyiha doirasida yuk terminali, keytering, yonilg‘i quyish majmuasi va boshqa xo‘jalik binolari qurilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, aeroportning yo‘lovchi terminali quvvati soatiga 1 ming nafarga yetkaziladi. Yuk terminali tadbirkorlik, eksport va tranzit salohiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, maxsus servis texnikalari parki yangilanadi. Bu istalgan turdagi samolyotlarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Davlatimiz rahbari aeroportning samardorligini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Mahalliy va xalqaro reyslarni ko‘paytirish, logistika imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarurligini ta‘kidladi. Chiptalar narxini aholiga qulay qilish asosiy vazifa etib qo‘yildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrif yakunlandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

Taraqqiyot odimlari

ZARGARONA MEHNAT HOSILASI

YOXUD QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRI IQTISODIYOTGA, AHOLI FAROVONLIGIGA KATTA NAF KELTIRADI

Bundan 15-20 yillar ilgari rivojlangan davlatlarda katta bir kompaniya miqyosida ishlab chiqarilayotgan maishiy texnikalar, sanoat mahsulotlarini Xitoy o‘ddiy uy, kichik bir sex sharoitida ishlab chiqarayotganini ko‘rib, aksariyatimiz “Xitoyliklar balo-da”, derdik. Bugun esa ijtimoiy tarmoqlarda xuddi shunday mahsulotlarni ayni sharoitda ishlab chiqarayotgan, hatto o‘z avtomobili va traktorini yaratgan ko‘pchilik yurtdoshlarimizni ko‘rib, ochig‘i, quvonaymiz.

Agar shunga o‘xshash mazmundagi xabarlar e‘tibor qaratilsa, ularning ko‘pchiligi vodiyan, xususan, Namangan viloyatidan ekaniga guvoh bo‘lasiz. Ha, bugungi kunga kelib, ko‘pchilik bejiz Namanganni Xitoyga mengamayapti. Birinchidan, viloyatning qator tekstil brendlari nafaqat yurtimiz, balki dunyo bo‘ylab raqobatlasha oladigan darajada rivojlanyapti, tanilmoqda. Har qanday turdagi qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan mini-texnologiyalarni ham aynan Namangandan topasiz. Olmosliklarning tomorqadan foydalanish omilkortligi barcha mahallalar, xonadonlarga kirib borgan. Umumman olganda, ular bugun barcha yo‘nalishlarda yetakchilar qatorida.

Davomi 3-beta

“Yashil” energetika

MILLIY GESLAR KASKADI

NAMANGANNING ELEKTR ENERGIYASIGA BO‘LGAN EHTIYOJINI QOPLAYDI, ORTGANI ANDIJON VA FARG‘ONAGA YO‘NALTIRILADI

“Kaskad” so‘zi izohli lug‘atdan joy olganiga ancha bo‘lgan. Bunda tabiiy yoki sun‘iy tarzda yaratilgan suv oqimining pastga pog‘onama-pog‘ona tushishi, shu asosda qurilgan me‘moriy inshootlar nazarda tutiladi. Giretnika sohasida esa bir daryo oqimida bir-biridan ma‘lum masofada joylashgan elektrostansiyalarga nisbatan qo‘llaniladi. Yurtimizda Quyi Bo‘zsu, Toshkent, Shahrixon, Samarqand, To‘palang kabi GES kaskadlari mavjud. Yaqin kelajakda ular safga Norin daryosida barpo etilishi mo‘ljallangan yangi kaskad ham qo‘shiladi.

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati 434 million dollar evaziga Norin daryosining Uychi tumani hududidan o‘tuvchi qismida 228 megavattli GES kaskadini barpo etadi. Buning natijasida yiliga 1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, 310 million kub metr gaz iqtisod qilindi, 430 ming xonadonga elektr quvvati uzatiladi.

— Bu kaskad 6 ta GESdan iborat bo‘ladi, har birining quvvati 38 megavattni (9,5 MVt. quvvatli 4 tadan gidroagregat o‘rnatiladi) tashkil qiladi, — deydi “O‘zbekgidroenergo” AJ boshqaruvi raisi Abdug‘ani Sanginov. — Ushbu istiqbolli loyihaning ishga tushirilishi

natijasida yiliga o‘rtacha 1 milliard 25 million kilovatt-soat ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

Loyiha to‘liq “O‘zbekgidroenergo” AJ mablag‘i hisobidan moliyalashtiriladi. Dastlabki ikki GES 2025-2026-yillarda, uchinchi va to‘rtinchi inshootlari 2026-2027, beshinchi va oltinchi quvvatlar qurilishi 2027-2028-yillarda amalga oshiriladi. Rejaga muvofiq, GES-1 va kaskad podstansiyasi qurilishi 2024-2025-yillarda bajariladi. Qurilish davrida 300, to‘liq faoliyat ko‘rsatgandan so‘ng 131 kishi doimiy ish bilan ta‘minlanadi.

Davomi 4-beta

2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

YANGI DAVRNING YUKSALISH TENDENSIYASI

Yurtimizdagi qulay ishbiarmonlik muhiti biznesga katta ishonch, imkoniyatlar bermoqda. Hatto O'zbekiston tadbirkorlar yurtiga aylanganini xorijliklar ham e'tirof qilmoqda. Ahamiyatli, bu yutuqlar vaqtinchalik emas, muntazamlik kasb etayotir. Buning isboti: 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili deb e'lon qilindi. Vazifalar ham shunga monand belgilab olindi. Avvalo, yurtimiz aholisining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etadigan yoshlar va iqtisodiyotning chin ma'nodagi lokomotiviga aylangan biznes sohasini yanada qo'llab-quvvatlash maqsad qilingan.

Yoshlar va biznes alohida hamda bir vaqtning o'zida uyg'un tushunchalardir. Tahlillarga ko'ra, hozir o'sib borayotgan yosh avlodda tadbirkorlik, biznes sohasini egallashga qobiliyat yuqoriroq. Yoshlar biznes tushunchasini ko'proq o'zlashtirib, startap, IT va boshqa yangi yo'nalishlardagi loyihalarga faol egalik qilmoqda. Yosh tadbirkorlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishga katta hissa qo'shadi, balki yangi istiqbol va innovatsion g'oyalarni olib kiradi. Shu jihatdan, yoshlar va biznes tushunchasiga yurtimizdagi biznes landshaftini qayta shakllantiruvchi va kelajak avlodning imkoniyatlarini kengaytiradigan yuksalish tendensiyasi sifatida qarash mumkin.

Imkoniyat bor joyda harakat ham faollashadi

Biznesni qo'llab-quvvatlash bandlik, iqtisodiyotning har bir tarmog'idagi rivojlanish, erkin bozor iqtisodiyoti va bularning ortidan aholi farovonligi oshishiga olib keladi. Chunki hududlarda biznes qanchalik rivojlanib, tadbirkorlar soni



Samariddin ELMIRZAYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

orta, aholi bandligini ta'minlash, turmush farovonligini oshirish, iqtisodiy o'sish shuncha yuqorilab boradi. Ayni chog'da mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga

to'g'ri kelyapti. Ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani xususiy biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham yuksalib borayotganini ko'rsatadi.

Tadbirkorlik qulay muhit bo'lgan joydagina rivojlanadi. Yangi O'zbekistonda ana shu muhitning shakllanish bosqichlari qanday faollik bilan kechgan bo'lsa, sohani rivojlantirish ham shunday shiddat bilan davom etyapti. O'tgan 2023-yil tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi ishbiarmonligini qo'llab-quvvatlash, biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarga boy bo'ldi. Xususan, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizga ilk bor qulay investitsiya va ishbiarmonlik muhitini ta'minlash, mulk daxlsizligi, bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratish, sud mustaqilligi bo'yicha aniq normalar kiritildi. Buning zamirida inson qadriini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash maqsadlari yotibdi. Kuchli iqtisodiyot barpo etish bo'yicha yangi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ushbu maqsadlarga erishishning muhim omili sanaladi.

Xususan, joriy yilda milliy iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 6 foiz oshirib, 100 milliard dollarga yetkazish, mazkur ustuvor vazifa ijrosini ta'minlashda "iqtisodiy kompleks rahbarlari va davlat korxonalarini uchun 2024-yil — tannarxni qisqartirish va samaradorlik yili bo'lishi lozimligi" belgilangani, ayniqsa, ahamiyatli.

Bunda xaridlar va logistika samarali tashkil etish, energiyatejkor loyihalarni amalga oshirish, ilg'or texnologiyalarga asoslangan raqamli transformatsiyani jadallashirish kabilar milliy ishlab chiqarishda tannarx pasayishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida,

xalqaro bozorda global raqobatdoshlikka ham xizmat qiladi. Ushbu tendensiya natijadorligini ko'plab davlatlar tajribasida ko'rish mumkin.

2024-yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot o'sishini kamida 6 foiz, jumladan, sanoat mahsulotlari o'sishini 7 foiz, bozor xizmatlari 14,9 foiz, qishloq xo'jaligi 4 foiz, qurilish 6,3 foiz va eksport hajmi o'sishini 25 foiz darajasida ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilab olingan. Bu hududlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, loyihalarni ko'paytirish bo'yicha aniq vazifalarni qo'yadi. Joriy yilda birgina elektrotexnika, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarini rivojlantirish uchun 12 milliard 700 million dollarlik 24 ta yirik loyiha amalga oshirildi. Mahalliy avtomobilsozlik sanoatida barcha mavjud va yangi ishlab chiqaruvchilarga shaffof va teng sharoitlar yaratish orqali 2024-yilda 450 ming dona yangil avtomobil ishlab chiqarishga erishish ko'zda tutilgan. Asosiy maqsad 2030-yilga borib, sanoat hajmini ikki karra oshirish, metallurgiya, neft-kimyo va mashinasozlik kabi sohalarni sifat jihatidan mustaqil yangi darajaga ko'tarishga qaratilgan bo'lib, umumiy qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod yirik sanoat va infratuzilma loyihasi hayotga tatbiq etiladi.

Iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytirish bo'yicha ham aniq yo'nalishlar belgilab olingan. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish orqali hududlarning sanoat va ishlab chiqarish salohiyati oshirilib, 35,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Natijada 309 ta yirik ishlab chiqarish obyekti va quvvati ishga tushirilib, 36 mingga yangi ish o'rni ochiladi.

Har biring hissasi ulkan

Bugun tadbirkorlik eng katta va ayni paytda milliy iqtisodiyotimizning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Barcha tarmoqlarda ishbiarmonlik muhiti yaratilib, kichik va o'rta biznes hayotimizga jadal kirib keldi. O'tgan yili yurtimizda ro'yxatdan o'tgan birgina kichik tadbirkorlik subyektlari soni 600 mingdan oshgani buning yaqqol misoli.

Chunki yangi O'zbekistonda tadbirkor davlatning ishonchli hamkori, davlat esa har bir biznes vakilining yaqin do'stidir. Davlat biznes vakillariga qo'l uzatdi, ularga katta ishonch bildirdi, har qadamda qo'llab-quvvatladi. Bu qo'llab-quvvatlov faqat moliyaviy manbalar, qo'shimcha imtiyozlardagina iborat emas, balki biznes vakillarining muammolari tinglanib, ularga yechim berilayotgani, takliflar ishlab chiqilayotganida ham ko'zga tashlanadi.

Tabiiki, barcha sohalarda bo'lgani kabi milliy iqtisodiyotda ham tadbirkorlarni qiyinaydigan muammolar mavjud. Shulardan biri yashirin iqtisodiyotdir. Uning ko'lamin qisqartirish maqsadida 2024-yildan Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlar qarihi kurashish departamentiga qo'shimcha vakolatlar berildi. Endi yashirin iqtisodiyotga sabab bo'layotgan omillarni tahlil etish asosida qarorlar qabul qilish lozim.

Biznesning aksiyadorlik jamiyati shaklida rivojlanishi ko'proq oshkorlik va shaffoflik prinsiplariga asoslanadi. Shu bois, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar aksiyadorlik jamiyatlariga aylanishi muhim. Bu ham yashirin iqtisodiyot keskin kamayishini ta'minlaydi. Qolaversa, iqtisodiy taraqqiyotda sog'lom raqobat zarur. Buning

uchun iqtisodiyotning davlat sektori va xususiy sektorning teng sharoitda ishlash tizimini joriy qilish talab etiladi. Xususan, kreditlash, soliqqa tortish, tashqi iqtisodiy faoliyat (bojxona) bilan bog'liq amaliyotlarda o'zaro teng sharoitni ta'minlashga ustuvor darajada e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Uning natijasi biznes faolligi tufayli milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, aholi bandligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish kabilarda namoyon bo'ladi.

Umuman, sohadagi ana shunday muammolar birin-ketin o'z yechimini topyapti. Muhimi, ular qog'ozda emas, amalda aks etib, tadbirkorlar faoliyatida sezilmoqda. Yangi 2024-yil ham, o'z nomiga mos holda fidoyi, ishning ko'zini bildirgan tadbirkorlar uchun yaxshi yangiliklar bilan boshlandi. Xususan, Tadbirkorlarning barqarorlik reytingiga ko'ra, reytingi yuqori korxonalar barcha turdagi soliq tekshiruvlaridan ozod qilindi. Shuningdek, bir-birini takrorlovchi hisobotlar tugatilib, barcha hisobotlar yagona elektron tizim orqali taqdim etiladigan bo'ldi, hisobotlarning qog'oz shakli bekor qilindi. Sanayversak, imkoniyat va imtiyozlar ko'p. Yana bular haqida gapirganda yoki yozganda biznes sohasidan uzoq kishilar uchun oddiy hisobotdek tuzulishi mumkin. Ammo bitta bo'lsa ham ish o'rni yaratib, tadbirkorlik qilyotgan odam borki, imtiyozlarni ko'rib, bilib turibdi, ulardan unumli foydalanaypti. Ahamiyatli, joriy yilda milliy iqtisodiyotimizda transformatsiya jarayonlari yanada jadallashadi va muhim islohotlar hali oldinda.

Shu o'rinda, davlatimiz rahbarining biznes vakillariga qaratayotgan "Har bir mamlakatda tadbirkorlar katta kuch-qudrat bo'lib kelgan. O'zbekistonimizda ham iqtisodiyotni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish, mahallalarni obod etishga harakat qilaymiz. Bunga eng katta hissa qo'shayotgan kim? Tadbirkorlar! Sizlar har biringiz qahramonsiz, fidoyisiz. Biz sizlar bilan faxrlanamiz", deb aytdi so'zlar yodimga tushdi. Chindan ham bugun tadbirkorlar zamonaviy qahramonlarga aylandi. Ularning faoliyati, ayniqsa, yosh ishbiarmonlar iqtisodiyot rivojida katta kuchdir. Biznes vakillari yaratayotgan ish o'rinlari esa o'nlab, yuzlab oilalarga daromad, farovonlik olib kiriyapti.

Munosabat

MADANIYAT MO'YNOQDAN BOSHLANYAPTI

Amangeldi JAKETOV, Mo'ynoq tumanidagi "Uchsoy" ovul fuqarolar yig'ini raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Orol dengizi desa, barchaning ko'z oldiga ayancli ahvol tasviri keladi. Lekin keyingi 5-6 yil ichida Orol dengizining qurigan tubida paydo bo'lgan yashil qoplamalar osmonga ko'tarilayotgan tuz va chang-to'zonni muayyan miqdorda to'xtatdi. Ayniqsa, Mo'ynoq tumanini yangilanishga, yasharishga yuz burgani tarixiy voqea bo'ldi.

Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi, degan edi Prezidentimiz. Mana, bugun Mo'ynoq tanib bo'lmay darajada o'zgaradi. Eng asosiysi, mo'ynoqliklarning turmush tarzi, dunyoqarashi o'zgaradi, ertangi kunga ishonchi ortmoqda.

Bugungi kunda aholi, ayniqsa, yoshlarni yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash yo'lida tumanimizda samarali ishlar qilinmoqda. "Mahalla yetilligi" tashkil etilishi esa har bir xonadon, har bir fuqaro bilan yaqindan ishlashga



imkoniyat bermoqda. Bizning "Uchsoy" ovul fuqarolar yig'ini tuman miqyosida eng namunali fuqarolar yig'inlaridan biri, deb bemaol ayta olamiz.

Ushbu mahallaga 2019-yildan buyon raisman. Mahallamiz ahli juda inoq. 339 oilada 1700 dan ziyod ko'pmillatli aholi og'izburchilik asosida mehnat qilib, do'stona munosabatda yashab kelmoqda. Ahillik va hamjihatlik samarasi o'laroq, 2023-yilda tumanidagi "Eng namunali mahalla" deb topildik. Hududimizda 1 ta maktab, 2 ta bolalar bog'chasi, 1 ta sport maydonchasi, 1 ta poliklinika, 20 ga yaqin savdo va 5 maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchasi faoliyat yuritmoqda.

Mahalla ahli oldinlari, asosan, baliqchilik bilan shug'ullanib kelgan bo'lsa, Orol dengizi orqaga chekingandan so'ng chorvachilik asosiy yumushiga aylandi. Shuningdek, hududimizda gaz koni bor. Bundan tashqari, Orol dengizidan 100 foiz eksportga yo'naltirilayotgan artemiziy qurti ovlanadi.

O'tgan yili mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida mahallamizga 500 million so'm

ajratildi. Ushbu mablag' hisobidan aholini qiynab kelayotgan muammolardan biri — ko'chalarga tungi yoritish chiroqlari, "Obod va xavfsiz" mahalla tamoyili doirasida kuzatuv kameralari o'rnatildi.

Ishsiz aholi bandligini ta'minlash maqsadida 10 ta oilaga imtiyozli kredit ajratildi. Umuman olganda, keyingi uch yilda mahallamizda 20 ga yaqin tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyatini boshladi.

Homiylk mablag'lari hisobidan 1 milliard 400 million so'mga bolalar sport zali va 100 million so'mga 2 ta kam ta'minlangan oilaning turar joyi qayta qurib berildi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun madaniyat Mo'ynoqdan boshlanyapti. Bunda oz bo'lsa-da, hissam borligidan xursandman. Ayniqsa, kamtarona mehnatimiz yuqori baholanib, davlatimizning yuksak mukofoti — "Do'stlik" ordeniga loyiq ko'rilganidan behad quvonchdaman. Mahallamizda yashayotgan barcha millat vakillarining do'stligi, o'zaro hamjihatligi va totuvlini yanada mustahkamlash yo'lida bor kuch-g'ayratimizni ayamaymiz.

shifokorga ko'rinib turadi. U shunga asoslanib murojaatchiga elektron retsept beradi. Shu asosda poliklinikaning o'zidan buyurilgan dorini olishi ham elektron tarzda nazorat qilinadi.

Barcha holatlarni ko'p tarmoqli markaziy poliklinikadagi keng doiradagi mutaxassislar bevosita nazorat qilib, tashxis va davolash bilan bog'liq jarayonlarda zarur tavsiyalar berish imkoniyatiga ega. Fuqarolar esa tibbiy tahlillarini, kasallik tarixini uyda o'tirgan holda onlayn tarzda kuzatib turadi.

Shifokor ko'rigiga yo'naltirilgan bemorlar ham elektron tarzda ro'yxatga qo'yilib, belgilangan vaqtda shifokor ko'rigiga boradi.

Sakkiz yildan buyon patronaj hamshira bo'lib ishlayman. Avvallari ish usulim juda murakkab edi. Bemorga e'tibordan ko'ra ortiqcha qog'ozbozlik ko'p bo'lgan. Bugun e'tiborni ko'proq bemorlarga qarash talab etilyapti. Chunki patronaj mavjud xavfni erta aniqlab, bartaraf etmasa, bemor og'ir holatga tushib qolishi mumkin. Shu maqsadda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarziga rioya qilish, kasallikni davolagandan ko'ra oldini olish, to'g'ri ovqatlanish, yosh bolalar, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash bilan bog'liq targ'ibot-tashviqot ishlariga alohida e'tibor beryapmiz.

Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan "Do'stlik" ordeni oldim. Ohig'i, bundan qanchalik quvonганиmi so'z bilan ifodalash qiyin.

Kamtarona mehnat va izlanishlarim qadrlanib, davlatimizning yuksak mukofotiga munosib ko'rilganidan faxrlanamam. Bu e'tibor va rag'bat yangi maqsad va rejalarni sari undaydi.

OLIS TUMANDAGI KUTUBXONACHI HAM E'TIBORDAN CHETDA EMASLIGINI HIS QILDIM



Adolat SOLIYEVA, Nurota tumanidagi 18-ixtisoslashtirilgan maktab kutubxonachisi, "Shuhrat" medali sohibi

Yurtimizning go'zal, mislsiz tabiiy boyliklar, bepoyon qir-adirlarga ega hududlaridan biri — Nurota tumanidagi 18-ixtisoslashtirilgan maktabda 32 yildan buyon kutubxonachi bo'lib ishlayman. Maktabimiz kutubxonasi o'quvchilar bilan birga atrofda mahallalar aholisi uchun ham ziyo ulashuvchi maskan sifatida xizmat ko'rsatadi.

Maktabimizda 1200 dan ziyod o'quvchi tahsil oladi. Ular bilan turli kitobxonlik tadbirlari o'tkazib kelamiz. Biz tomonlarda kitob mutolaasi aksariyat yoshu qari uchun sevimli mashg'ulot. Tiriklik uchun suv, oziq-ovqat qanchalik zarur bo'lsa, nurotaliklar uchun kitob mutolaasi shunchalik zaruratga aylangan.

Uch-to'rt qatorlik xabar o'qish ommalashgan bugungi kunda-y, deya inkor etishga shoshilmang. Yaxshisi, Nurotaga bir keling, kutubxonamizdan qiyos, o'zingiz ko'rasiz. Inchunin,

tevarak-atrofdagi mahallalardan mingdan ziyod aholi kutubxonamizga a'zo. Shunchaki a'zo emas, bu maskan ularning muntazam keluvchi sevimli joyi. Shuning uchun doimo mahalladoshlarimiz va o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi.

Ishonish qiyindir, lekin bizda kitobxonlarning ko'pligi hisobiga hattoki badiiy adabiyotlar yetishmasligi ham bor edi. Navoiy viloyati hokimi maktabimizga kelganida aynan shu masalada yordam so'radim. Murojaatim tez fursatda ijobiy hal etilib, kutubxonamiz yana 2 mingta yangi adabiyot bilan boyidi.

Fondimizni yanada boyitish maqsadida hozir "O'qigan maktabimga kitob sovg'a qilaman", "Farzandimga kitob sovg'a qilaman" kabi aksiyalar o'tkazaymiz. Natijada kutubxonamiz yil sayin boyiyapti.

22-mart — Mahalla tizimi xodimlari kuni munosabati bilan "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganim men uchun kutilmagan va hayotimdagi eng quvonchli voqea bo'ldi.

Albatta, mehmatning munosib rag'batiga kishiga mas'uliyat yuklashi bilan birga kelgusi ishlariga ham kuch bag'ishlaydi. Ayni vaqtda aholi va o'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni yanada ommalashtirish maqsadida yangi rejalarni ko'zga tashlaymiz. Har hafta "Bir haftada bir kitob", "Eng yaxshi kitobxon" va "Eng faol a'zo" tanlovlari o'tkazaymiz, g'oliblarga yangi badiiy adabiyotlar sovg'a qilaymiz. To'g'risi, bu tadbirlarning natijasi kutilganidan ham a'lo. Mahalla aholi va o'quvchilar orasida ishtirokchilar soni kundan-kunga ko'paymoqda.

Kutubxona — muqaddas dargoh, ziyo ulashuvchi maskan. Azaldan xalqimiz kutubxonaga intilgan va bilimlarini boyitgan. Uzoq yillik faoliyatimda bu dargoh men uchun yanada qadrlil bo'ldi, ikkinchi uyimga aylandi. Kitobxonlar ko'paysa, xursand bo'laman, agar muayyan muddat kamayishni boshlasa, darhol maskanimizni yangi adabiyotlar bilan boyitish harakatiga tushaman.

Umuman olganda, davlatimizning ushbu yuksak mukofoti va albatta, ishonchidan juda xursandman. O'lis tumandagi bir kutubxonachi ham e'tibordan chetda emasligini his qildim. Bundan keyin yangicha shijoat bilan mahallalar aholisi va o'quvchilar orasida ma'naviyat, bilim ulashishda davom etaman.

DARDIGA MALHAM TOPGANLARNI KO'RSAM, QUVONAMAN

Aynur SHAKIROVA, Oltiariq tumanidagi 89-oilaviy poliklinika patronaj hamshirasi, "Do'stlik" ordeni sohibi

Qo'shni Qirg'izistondan Oltiariq tumanidagi Jonibek qishlog'iga kelin bo'lib tushganimga 31 yil bo'ldi. Qizilqiya shahridagi tibbiyot bilim yurtini tamomlab, qishloq feldsherlik punktida ish boshlaganman. Shu bois bo'lsa kerak, hamqishloqlarim bilan tez til topish ketganman. Qishlog'imiz tuman markazidan 15 kilometr olisda.

Qishloq feldsherlik punkti pastqam devorli moslashgan binoda joylashgan. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish o'z holicha edi. Tibbiy jihozlar, malakali vrachlar yetishmasligi aholi salomatligini muhofaza qilish borasida ko'plab muammolar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Oddiy qon tahlilini aniqlash uchun ham tuman markaziga borishga majbur bo'lganmiz.

Endi hamma narsa tubdan o'zgardi. Qishlog'imizda zamonaviy tibbiyot maskani qurilib, aholi salomatligini muhofaza qilish bilan bog'liq barcha kerakli sharoitlar yaratib berildi.

Xususan, men ishlayotgan oilaviy poliklinika ish tizimi raqamlashtirilib, "Elektron poliklinika"

axborot tizimi joriy etilgach, kasallikni erta aniqlash, davolash keskin yaxshilandi. Har bir mahalla kesimida tibbiyot brigadalari tashkil etildi. Bugungi kunda 1100 aholiga tibbiy xizmat ko'rsatib kelyapmiz.

Shu kunga qadar tibbiy yordam so'rab murojaat qilgan aksariyat yurtdoshlarimizni shifokor nazoratidan o'tishga yo'naltirish bilan cheklanganmiz. Endi esa masofadan turib ham malakali shifokorlar bilan muloqot qilish, tashxis qo'yish, davolash sharoitlari yaratildi.

Fuqarolar "Elektron poliklinika" orqali ro'yxatga olingach, oilaviy shifokorga yo'naltiriladi. Shifokor bemor uchun zarur tekshiruvlarni belgilab bergach,



shu asosda tor soha mutaxassislari yoki laborator analiz topshirishi mumkin. Laboratoriya xodimi mazkur ma'lumotlarga asoslanib, bemordan kerakli tahlillarni oladi va qayta shifokorga yuboradi. Bu jarayon bemor va shifokor vaqtini tejab, tibbiy ma'lumotlarni xavfsiz saqlash imkonini bermoqda. Bemorning barcha tahlillari elektron tarzda oilaviy



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

TARAQQIYOT ODIMLARI

ZARGARONA MEHNAT HOSILASI

YOXUD QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI IQTISODIYOTGA,
AHOLI FAROVONLIGIGA KATTA NAF KELTIRADI

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchidan, Namangan viloyatining yaqin-yaqingacha sanoat bilan bog'liqlik jihati kam edi. Shuning uchun ham vobodiydagi eng qulay joylashuv hamda infratuzilmaga ega viloyatning iqtisodiy ko'rsatkichlari bundan olti-yetti yil muqaddam ham eng quyi o'rinlarda turardi.

Keling, shu o'rinda, umumiylikdan konkretlikka o'tib, fikrimizni aniq faktlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar misolida davom ettirsak. 2016-yilda viloyatdagi sanoat korxonalar tomonidan 3,4 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Keyingi yetti yil ichida bu ko'rsatkich 6 barobar o'sib, 2023-yilda qariyb 21 trillion so'mga yetdi.

O'sha yillari viloyatdagi sanoat korxonalarini soni 3 mingtaga ham yetmasdi, hozir esa besh mingga yaqin korxonaga shu yo'nalishda faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili yalpi hududiy mahsulot hajmi ilk bor 47 trillion so'mdan oshdi. Holbuki, 2016-yilda bu raqam 13 trillion so'mga ham yetmagan. Ko'rinib turibdiki, o'sish 3,6 barobar ortgan.

Ishlab chiqarish hajmiyatiga mos ravishda hududning eksport salohiyati ham oshib bormoqda. Jumladan, 2016-yilgacha viloyat, asosan, qo'shni davlatlarga mahsulot eksport qilgan bo'lsa, bugun 80 dan ortiq davlatlar bilan savdo qilmoqda. Natijada 2023-yilga kelib, eksport ko'rsatkichi 3,5 barobar oshdi.

Yana bir muhim jihat, mamlakatimizdagi eng kichik sanoat zonalarini ham ilk bor shu viloyatda tashkil etilgan. Bugunga kelib viloyatda bunday kichik sanoat zonalarini soni 84 taga yetdi. Ularda umumiy qiymati 10 trillion so'mdan ortiq 1245 ta loyiha joylashtirilgan. Qariyb 46 mingta yangi ish o'ri ochilib, 4,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Mamlakatimiz oltin qazib olish bo'yicha dunyoning 10 ta yetakchi davlatlaridan biri. Yurtimizda bu borada ulkan imkoniyat va salohiyat mavjud. Keyingi yillarda zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish hajmi sezilarli o'sib bormoqda. Kichik hamda yirik quvvatlar barpo etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, zargarlik hunarmandlikidan sanoatga aylanyapti.

Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga navbatdagi tashrif chog'ida yangi va yirik iqtisodiy loyihalarni ro'yog'ga chiqarish, foydalanilmayotgan imkoniyatlarni to'la ishga solish, qayta ishlab ko'lamini kengaytirish, aholi bandligini ta'minlash bilan bog'liq ustovur vazifalar belgilandi, bu ayni paytgacha erishilgan rivojlanish shiddatini yangi pog'onaga olib chiqish, ko'rsatkichlarni yanada yaxshilashga asos yaratishi bilan ahamiyatlidir.

ZARGARLIK
HUNARMANDLIK DAN
SANOATGA AYLANYAPTI

Zargarlik tez orada iqtisodiyotimizning drayver sohaslaridan biriga aylanishi kerak. Qadimda Namanganning zargarlari mashhur bo'lgan. Lekin yetarli sharoit bo'lmagani, xomashyo sotib olishdagi qiyinchiliklar sabab ko'p zargarlar faoliyatini to'xtatgan. Bori ham buyumlarini qo'lda tayyorlagan. Shu tufayli o'tgan 15-20 yilda bu turdagi import mahsulotlar bozorlarimizni egalladi.

Prezidentimizning 2019-yil 18-maydagi "O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni soha vakillariga keng imkoniyatlar ochdi. Xususan, hujjat bilan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchilarga kon-metallurgiya kombinatlari va aholidan qimmatbaho metall parchalari, toshlar va ulardan yasalgan buyumlarini sotib olish huquqi berildi. Xorijdan zamonaviy texnologiya va mutaxassislar olib kelish qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbarining viloyatga tashrif doirasidagi dastlabki manzil — Yangi Namangan tumanidagi "Gavhar grup" korxonasi yaratilgan ana shunday imkoniyatlar natijasida vujudga keldi. Ayni paytda mazkur zamonaviy korxonaga yiliga 1200 kilogramm zargarlik buyumlarini sanoat usulida ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Zargarlikni rivojlantirishdagi eng muhim omil — oltinni Tovar-xomashyo birjasidan kechiktirib to'lash sharti asosida sotib olish imkoniyati bo'ldi, — deydi "Gavhar grup" korxonasi rahbari Azizbek Abdurasulov. — Bunday imkoniyat zargar tadbirkorlarga ishonch

berdi. "Gavhar grup" ham shu tariqa vujudga keldi. Turkiya, Italiya, AQSH va Germaniyadan zamonaviy uskunalar olib kelib, 2022-yilda ishga tushirdik. O'tgan yili 270 kilogramm mahsulot ishlab chiqardik.

Zargarlik mahsulotlari hamisha talabgir. Tadbirkor uchun esa qo'shimcha qiymatga ega mahsulot. Bugungi kunda korxonada 10 ming il dizayndagi zargarlik buyumlari ishlab chiqarish o'zlashtirilgan. Chet el bilan hamkorlikda qo'l soatlarining tilla korpusini tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu yerda 3D modellashirish orqali buyurtma asosida istalgan ko'rinishdagi buyumlarni ishlab chiqarish mumkin. Korxonada mahalliy zargarlar bilan kooperatsiya yo'lga qo'yilgan. Korxonada 100 dan ortiq aholi bandligi ta'minlangan. Shu yerning o'zida yoshlarga hunar ham o'rgatildi.

Prezidentimiz zargarlar bilan subhatta: "Mamlakatimizda yiliga 100 tonna oltin qazib o'laymiz. Uni zargar tadbirkorlarga bo'lib to'lash sharti bilan sotishga ruxsat berilgan. Ochiq'i, bunday imkoniyatlar hech qaysi davlatda yo'q. Oltin qazib olinmaydigan mamlakatlar bizdan ko'p eksport qilyapti. Bu sohada bir oz kechikdik. Shuning uchun ishlab chiqarishga qo'shimcha sharoitlar yarataymiz. Bu hali boshlanishi. Sohani hali yanada rivojlantiramiz", dedi. Shuningdek, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, sohadagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tashabbuslar berildi.

— 20 yildan beri zargarlik bilan shug'ullanaman, — deydi Akbar Otaxov jayev. — Avvallari mahsulotni olishda ham, sotishda ham juda qiyinalardik. Eng achinarlisi, o'zimizning brendimiz yo'q edi. Tayyorlangan mahsulotimizni birorta do'konga olib borsak, ularning "Qayerda ishlab chiqarilgan" degan savoliga javob berolmasdik. Hunarmandlarga berilayotgan imkoniyat va e'tibor tufayli bugun biz o'zimizni qo'rqmasdan zargar, deb aytay o'laymiz. Qolaversa, mana shunday katta, barcha sharoitlar yaratilgan zamonaviy zavodlarda ishlab chiqarishga ega bo'ldik.

Kelgusi ikki yilda eksportni bir milliard dollarga yetkazish rejalangan. Buning uchun 13 tonna oltin quyma emas, tayyor zargarlik mahsuloti sifatida qayta ishlanib, eksport qilinadi.

Zargarlik bo'yicha yetakchilardan bo'lgan Turkiyada yiliga bor-yo'g'i 20-30 tonna oltin qazib olinadi. Ammo 8 milliard dollarlik mahsulot eksport qilinadi. O'zbekistonda esa eksport ishlab chiqarish hajmiyatiga mos emas. To'g'ri, o'sish bor: 2023-yilda 78,5 million



dollarlik mahsulot eksport qilingan. Bu 2019-yildagidan 22 barobar ko'p demakdir. Lekin quyma oltinni chuqur qayta ishlash orqali eksport ko'rsatkichlarini keskin oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bois, Prezidentimiz turkiyalik ishlab chiqarish bilan tajriba almashish, sobani yanada rivojlantirishga qaratilgan masalalar yuzasidan mulohazalar qildi.

— Yurtimizdagi oltin va zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishda katta salohiyat va imkoniyatlar mavjud, ya'ni ulkan natijalarga erishish mumkin, — deydi Istanbul zargarlar palatasi raisi Mustafa Ataik. — Biz bor kuch va imkoniyatlarimizni ishga solib, yordam berishga tayyormiz. Bu yerga nomdor ustalarimiz, o'qituvchilarimizni olib kelib, birgalikda yangi loyihalar ustida ishlaymiz. Bugun biz



O'zbekiston oltin biznesida yanada yaxshiroq o'rinlarga ko'tarilishi xususida fikr almashdik. Yurtimizdagi oltin eksporti hajmi anchagina past. So'nggi ikki yil ichida bir oz o'sishga erishilayotganiga guvoh bo'lish mumkin. Boshqacha aytganda, yurtimizdagi oltinni qayta ishlashga e'tibor kuchaytirilayotgani, yaqin yillarda bu o'z samarasini bera boshlaydi.

UYCHINING "O'SISH
NUQTASI"

Namangan viloyatida hozirgi kunga qadar qiymati 5,5 trillion so'mlik 909 ta loyiha ishga tushirilib, 50 mingdan ortiq ish o'ri yaratilgan. Ushbu korxonalar tomonidan o'tgan yili 5,8 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 59,5 million dollarlik mahsulot eksportga yo'naltirildi.

Davlatimiz rahbarining navbatdagi manzili Uychi tumanidagi "Qumtepa" yoshlar kichik sanoat zonasi bo'ldi.

Hozirgi kunda bu yerda qiymati 4,3 trillion so'mlik 336 ta loyiha amalga oshirilayapti, 14 mingdan ortiq ish o'ri ochish rejalashtirilgan. Mahallalarda shakllangan kasb-hunarlarini rivojlantirib, drayverga aylantirish, shu orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Uychi tumanidagi Qumtepa, Dehqon, Balandari va Jiydakapa mahallalarida temirchilik shunday yo'nalishlar sirasiga kiradi.

Yaqingacha temirchilar uchun bo'sh yer

energiyatejamkor usullar joriy etilib, quyosh panelaridan samarali foydalanilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi, temirchi hunarmandlar bilan suhbatlashdi. Sanoat zonasida birinchi bosqichda 52 ta loyiha amalga oshirilib, 1500 dan ortiq ish o'ri yaratilgan. Ustalar xomashyoni "Aziya metall prof"

Viloyatda xalqni rozi qilish yo'lidagi bu kabi ko'plab o'zgarishlar kutilmoqda. Natijada avvalgi yillarda kuzatilgan iqtisodiy o'sish sur'ati yanada oshadi. Zargarlar doim o'z ishinging eng mohir hunarmandlari hisoblangan. Viloyatning o'tgan davrdagi iqtisodiy o'sishi zargarona bajarilgan ishlar hosilasidir.

korxonasi va Toshkent metallurgiya zavodidan olib, temirdan darvoza, eshik, so'ri, panjara va boshqa metall buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Joylarda bu mahsulotlarga talab yuqori. Shu bois, tadbirkorlar barcha viloyatlarda o'z savdo uylari va ishlab chiqarish filiallarini ochgan. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarga 1,2 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

— 12 yildan buyon tadbirkorlik bilan shug'ullanaman, — deydi Shamsir Norboyev. — Oldin joy yo'qligi sabab uyimda ishlardim. Shovqin tufayli qo'shnilardan xijolat bo'lardim. Lekin baribir ishlash kerak edi. Mazkur sanoat zonasi tashkil etilgani biz uchun juda zo'r imkoniyat bo'ldi. Xohlasak, ikki smenada ishlashimiz ham mumkin. Uy sharoitida bir o'zim ishlardim. Bu yerda hozir sakkiz nafar shogirdim bor. Sharoit yaxshi. Mahsulotlarimizga ham xaridorlar ko'paydi. Eng muhimi, zamonaviy texnologiyalar sabab qo'l mehnati kamaydi.

Bu yerda ikkinchi bosqichda yana 45 ta loyihani amalga oshirish, 1330 ta qo'shimcha ish o'ri yaratish rejalashtirilgan. Prezidentimiz mutasaddilarga sanoat zonasi maydonidan samarali foydalanish, yoshlarni va ishsiz fuqarolarni hunarga jalb etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shu yerda mahallabay ishlab orqali ishsizlikni kamaytirish bo'yicha vazifalar muhokama qilindi.

IFTORLIK DASTURXONIDA
QO'LLAR DUOGA OCHILDI

Islom dini eng katta quvvatni bizning diyorimizdan oldi. At-Termiziy, al-Buxoriy, Zamaxshariy kabi allomalarimiz hayoti va faoliyati bunga yaqqol misol. Bu xalqimiz azaldan ilm-ma'rifatga tashna, ezgulik tarafdori bo'lganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz ishtirokida Namangan viloyatida o'tkazilgan iftorlikka Far'ona

va Andijon viloyati nuroniyolari ham tashrif buyurdi.

Ramazon ezgulik, xayr-saxovat, ma'naviy poklik o'yidir. Shu bois, bu o'z katta xursandlik bilan kutib olamiz. Bolalar ko'chalarni to'ldirib qo'shib, mehri, e'tiborini ham ulashdi. Mamlakatimizdagi diniy bag'rikenglik, erkinlik sabab hamma o'z ibodatini to'la-to'kis ado etmoqda. Bugun ham yurtdoshlarimiz masjidlarda Qur'oni karim xatm qilib, yurtimizga fayzu baraka so'rab duoga qo'l ochmoqda. Iftorlik dasturxonida yana bir bor qo'llar duoga ochildi. Tadbir davomida muhim masalalar borasida mulohazalar bo'lib o'tdi.

Avvalo, davlatimiz rahbari yurtimiz musulmonlarini Ramazon oyi bilan yana bir bor tabrikledi. Bu ishlar hissa qo'shayotgan imoniyonati, saxovatli yurtdoshlarimizga tashakkur aytdi. Shundan so'ng bugun mamlakatimiz, xalqimiz hayoti oldida turgan muhim vazifalarga to'xtaldi. Barcha jabhadagi ishlar rivoji uchun, avvalo, ilm va ma'rifat qanot bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Darhaqiqat, ilmsiz hech bir cho'qqini egallab bo'lmaydi. Ajdodlarimiz azaldan dunyo ilmi-ma'rifatini o'zida jam etib, jahon kuzib bilim olgan, odamlarga ma'rifat ulashgan. Ular



yoqqan mayoqning hamon baland turgani boisi ham shunda.

Hozir ham ko'pgina yurtdoshlarimiz xorijda o'qiyapti, ishlayapti. Ular qayerda bo'lmasin, qalb to'rida ona Vatani sog'inchi bilan yashaydi. Shu bois, yurtidan, vatandoshlar tomonidan ko'rsatiladigan katta-kichik e'tibor, mehri o'zgarishga ishtiyoq, tashakkul bilan qabul qiladi. So'nggi yillardagi o'zgarishlar sabab xorijda o'qiyotgan va ishlayotgan vatandoshlarimizga munosabat o'zgardi. Bugun yurtdoshlarimiz xorijda bo'lsa ham huquq va manfaatlarini vatani tomonidan himoya qilishini yurakdan his etmoqda. Boz ustiga, zarurat tug'ilganda moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida yurgan inson qalbidan shu kabi imkoniyat o'z uyimda, vatanimda bo'lsa edi, degan niyat bo'ladi. Shu sababli xorijdagi yurtdoshlarni Vatanimizga qaytarish, ulami munosib ish o'ri, daromad manbai bilan ta'minlash, oila a'zolari va farzandlarini ijtimoiy himoyalash yuzasidan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi texnik taraqqiyot zamonida ilm o'rganish osonlashdi. Qolaversa, yurtimizdagi erkinlik, xalqaro maydondagi do'stona munosabatlarni mustahkamlab borayotgani bunga yanada keng yo'l ochmoqda. Ammo tahlikali zamonada har qanday bilimli inson ham adashishi, boshqalar tuzog'iga tushib qolishi mumkin. Buning oldini olish uchun xalqimizga xos bag'rikenglikni, ma'rifatni keng yo'yish kerak bo'ladi. Shu maqsadda 40 dan ziyod ulamo Rossiya, AQSH, Janubiy Koreya, Turkiya, Misrga safarga yuborildi. U yerlardagi vatandoshlarimizni dinu diyonatga da'vat etish bilan birga hozirgi tahlikali vaziyatda ogoh bo'lib, qonunlarni hurmat qilish, yomon yo'larga kirmaslik zarurligi haqida suhbatlar qilishdi.

Iftorlik dasturxonida yurtimizdagi qilinayotgan shu kabi ishlar e'tirof etildi. Davlatimiz rahbari chet eldagi yurtdoshlarimizni ham ulug' ayym bilan tabriklab, ularga sog'liq-omonlik va omad tiladi.

— Bugun dunyoda

yuz berayotgan turli tahlikali voqealar jarayonida yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlikni ko'rgan har bir kishi shukrona aytmoqda, — deydi Namangan davlat universiteti professori Tursunboy Fayzullayev. — Iftorlik dasturxonida o'tirganimizda dilimizdan go'zal his-tuy'ular o'tdi. Bizni quvontiradigan jihat shundaki, mamlakatimizda ichki va tashqi siyosat birdek, xalq manfaatini o'z yilab yuritilmoqda. Viloyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojini yanada yaxshilash uchun muhim loyihalardan xabardor bo'ldik. Davlatimiz rahbari ushbu loyiha va topshiriqlarni bajarishda bitta muhim omilni alohida ta'kidladi: ilm, ilm va ilm. Shu orqaligina oldimizda turgan dolzarb vazifalarni bajarishimiz mumkin, degan da'vatkorona fikrni ilgari surdi. Bugungi tadbir Ramazon oyida yoziladigan an'anaviy iftorlik dasturxonida emas, balki xalqimiz hayotida muhim qadriyatga aylangan ma'rifiy tadbir bo'ldi.

O'zbekiston — ijtimoiy davlat. Bu Bosh qonunimizda belgilab qo'yilgan. Albatta, ushbu qoida keyingi yillarda amaliy ifodasini topib bormoqda. O'lis qishloq va ovullar obod qilinib, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Ayni vaqtda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'mak beradigan multo'q yangi tizim shakllanmoqda. Bu tizim, birinchi navbatda, ehtiyojmand aholi, jumladan, nigronligi bo'lgan, kam ta'minlangan, yetim qolgan, o'zgalar parvarishiga muhtoj insonlarga har tomonlama yordam ko'rsatishga asoslangan. Ehtiyojmandlarga mehr ko'rsatish ham qadim ajdodlarimizdan meros bo'lgan eng go'zal odatlarimizdan sanaladi. Buni Hazrat Navoiy quyidagi baytlarida go'zal ifoda etgan:

"Kimki bir ko'ngli buzg'ning xotirin shod aylagay, oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay".

— Bugungi iftorlik dasturxonini ham xalqimizning qay darajada bir-biri bilan jipsligi, ahilligini isbotladi, — deydi chortloqlik Mamatbek Abdurahmonov. — Iftorlik ochiq havoda, samimiy muhitda o'tdi. Bunday muhitni yaratish uchun juda katta kuch kerak. O'sha kuch bizda borligiga bugun yana bir marta amin bo'ldim. Millatim qirg'iz bo'lsa-da, o'zbekistonlikman. Avvalo, shu yurt fuqarosi ekanimdan, o'z millatimdan faxrlanaman. Chortloq tumanidagi Sosoy degan eng chekka qishloqda yashayman. Chegara hududidagi qishlog'imizning yo'llari qisqa vaqtda asfalt qilindi. Ikki qavatli maktab va bog'cha qurildi. Inson ko'rgan yaxshiligini aytib bilishi kerak.

Darhaqiqat, bugun Namangan viloyati mamlakatimizning yetakchi iqtisodiy hududiga aylanib bormoqda. Ko'zlangan natijaga erishish uchun esa boshlangan amaliy ishlarni izchil davom ettirish kerak. Davlatimiz rahbari mas'ullar va viloyat faollari bilan bo'lgan mulohazat ayni shu vazifalarga to'xtalib o'tdi. Jumladan, ishsizlikni kamaytirish uchun mas'ullar har bir korxonaga, tadbirkor va xonadon bilan yaqindan ishlashi zarurligi ta'kidlandi. Sayxunobod tajribasi misolida Uychi tumanidagi 56 ta mahallani ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish, tomorqada 60-70 million so'm daromad olish bo'yicha namuna yaratish topshirildi.

Umuman olganda, viloyatda xalqni rozi qilish yo'lidagi bu kabi ko'plab o'zgarishlar kutilmoqda. Natijada avvalgi yillarda kuzatilgan iqtisodiy o'sish sur'ati yanada oshadi. Zargarlar doim o'z ishinging eng mohir hunarmandlari hisoblangan. Viloyatning o'tgan davrdagi iqtisodiy o'sishi zargarona bajarilgan ishlar hosilasidir.

Lutfulla SUSNOV,
Boboravshan G'OZIDDINOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbirlari

Daromadlarni ikki turga bo'lish mumkin — rasmiy va norasmiy. Rasmiy daromad o'z nomi bilan rasmiy hujjat va manbalarda qayd etiladigan mablag'lar hisoblanadi. Bunday kredit oluvchilarning qarzi yuki ko'rsatkichi belgilangan me'yordan oshmasa, tijorat banklaridan kredit olishda cheklovlar bo'lmaydi. Hatto rasmiy daromadga ega bo'lgan yoki norasmiy daromadini rasmiylashtirgan qarzi oluvchilar bankdan kredit olishda qo'shimcha imkoniyatlar, yengilliklarga ega bo'lishi mumkin.



YANGIHA YONDASHUVLAR

QARZ YUKINI HISOBLASH

KREDIT OLIISHDA QIYINCHILIKLARNI OSHIRADIMI?

Hozir bank sohasida aholini eng ko'p qiziqtiradigan masalalardan biri kredit bo'lib qolgan. Bir tomondan, bankdan qarzi olishning nisbatan osonlashgani odamlarga qulaylik bo'lsa, boshqa tomondan, aholi orasida bir vaqtning o'zida bir nechta kredit olib, ixtiyoriy daromadning katta qismini qarzlarni so'ndirishga sarflayotganlar soni ortib bormoqda. Natijada kundalik xarajatlari qolib, kredit to'lash, qarzlarni yopish bilan ovora bo'lib qolyapmiz. Chunki aksar hollarda zimnamizdagi qarzi miqdori oylik daromadimizga mos kelmaydi.



Qayd etish lozimki, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan talablarda qarzi yukini hisoblanishi faqat mikroqarzlari kesimida talab etilgan bo'lsa-da, shu vaqtga qadar kredit tashkilotlari o'zlarining ichki siyosatiga muvofiq, kredit ajratishda qarzi oluvchilarning kredit tarixi, ularning to'lovga layoqatligi kabi omillar bilan bir qatorda qarzi yukini ham inobatga olib kelgan.

Qarzi yukini aholi kredit bo'yicha oylik to'lovlarining oylik daromadiga nisbatan hisoblanadi. Deylik, oylik daromad 10 million so'm, kredit bo'yicha oylik to'lov esa 6 millionni tashkil qiladigan bo'lsa, qarzi yukini ko'rsatkichi 60 foiz hisoblanadi. Bunda ularning so'nggi olti oydagi rasmiy daromadi hisob-kitob qilinishi kerak. Kreditlar kesimida qarzi yukini darajasining haddan ziyod oshib borishini yana bir omil bilan bog'lash mumkin. Bu ayrim qarzi oluvchilar o'rtasida moliyaviy savodxonlik yetarli emasligi. Masalan, shaxs o'z daromadining bir qismini jamg'arma sifatida saqlab qo'yishi maqsadga muvofiq. Ya'ni u daromadini kamayganida mazkur jamg'armadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, shaxsiy jamg'armani

Masalan, kapital monandligi hisob-kitobida ajratilgan ipoteka va avtokreditning tavakkalchilik darajasi bir vaqtning o'zida 2 ta omil — qarzi yukini ko'rsatkichi hamda kreditning garovga nisbatini inobatga olish asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar qanchalik yuqori bo'lsa, kreditning tavakkalchilik darajasi mutanosib ravishda baland darajada belgilanadi. Masalan, qarzi oluvchiga ipoteka krediti ajratilishda kreditning garovga nisbati 50 foizdan va ushbu qarzi oluvchining qarzi yukini ko'rsatkichi 60 foizdan oshmasa, u holda mazkur ipoteka kreditiga nisbatan 35 foiz darajasida tavakkalchilik darajasi belgilanadi.

Yangi talablar joriy etilishi aholiga kredit berish sur'ati pasayishiga olib kelishi mumkinmi? — Yo'q. Markaziy bank bu borada pasayish kuzatilishini kutmayapti. Sababi, maqsad kredit berishni to'xtatish emas, balki kredit tashkilotlari tomonidan kredit tavakkalchiligi yanada samaraliroq boshqarilishiga erishish, aholining qarzi yukini darajasi ortishi va to'lovga layoqatsizlik bilan bog'liq xatarlarning oldini olishga qaratilgan. Shuningdek, ushbu qarzi qabul qilinishida amalda ham ko'pgina tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kredit ajratilishida qarzi yukini darajasi hisob-kitobi amalga oshirilib kelinayotgani inobatga olingan.

Umuman, kredit olishning ham o'z talabi, odati bor. To'lash qobiliyatiga ko'zi yetmay turib, kredit olish yoki oylik daromadining asosiy qismini qarzi to'lashga sarflash qarzi oluvchining daromadidagi salbiy o'zgarishlar — shoklarga bardoshlilikini kamaytiradi. Doimiy olib yurgan daromadimiz bizga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan omillar tufayli kamayishi yoki to'xtab qolishi mumkin. Biroq kredit tashkiloti oldida mavjud majburiyatimizni hech kim bekor qilmaydi. Ya'ni biz kredit bo'yicha oylik to'lovlarni qisman yoki to'liq darajada to'lay olmaydigan darajaga tushgan holda tobora qarzi botqog'iga tushib boramiz. Bizning maqsadimiz fuqarolarning kredit olishida yuzaga keladigan

Mutaxassislar aytishicha, bu nafaqat oila byudjetiga ziyon, balki bank-moliya tizimida ham turli xatarlar keltirib chiqaradi. Qarzi oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajara olmasligi ortidan muammoli kreditlar soni ortib boradi. Qolaversa, qarzdorlikni to'lay olmaslik sabab fuqarolarning tashvishi ham oshadi. Vaholanki, kredit olish aholiga muammo emas, qulaylik yaratishi, manfaatdorlikni oshirishi lozim.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda bankdan kredit olish yanada qiyinlashar ekan, degan xabarlar tarqaldi. Bunga joriy yil 28-fevral kuni Markaziy bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan O'zbekiston banklari uchun aholiga kredit berish bo'yicha talablarni kuchaytirishga oid qarori sabab bo'ldi. Unda endilikda qarzi yukini darajasi nafaqat mikroqarzlari, balki barcha kreditlar ajratishda inobatga olinishi belgilangan. Ya'ni shu yilning 1-iyulidan boshlab barcha kreditlarni berishda kreditorlar o'z mijozlarining qarzi yukini 60 foizdan oshmasligi, 2025-yil 1-yanvardan esa bu ko'rsatkich 50 foizgacha qisqartirilishini ta'minlashi zarur.

Xo'sh, bu nima degani? Talabning kuchaytirilishi chindan ham aholining kredit olishini qiyinlashtiradimi? Kredit masalasida kiritilayotgan shu kabi o'zgarishlarga doir savollar bilan Markaziy bank Kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish metodologiyasi departamenti boshqarma boshlig'i o'rinbosari Temurbek USMONOVga yuzlandik.

Markaziy bank boshqaruvi qarorida nazarda tutilgan asosiy o'zgarish va talablardan biri bu — kredit tashkilotlari aholiga nafaqat mikroqarzlari, balki barcha turdagi kreditlarni ajratishda qarzi yukini hisobga olishi zarurligi bilan bog'liq, — deydi T.Usmonov. — Mazkur o'zgarishlar Markaziy bank boshqaruvi qarori bilan tasdiqlangan "Qarzi oluvchi jismoniy shaxslarning qarzi yukini tartibga solish to'g'risidagi"gi nizomga kiritilgan.

Ya'ni endilikda qarzi oluvchilarning kredit tavakkalchiliklarini baholashda qo'shimcha ko'rsatkich — qarzi yukini darajasi inobatga olinadi. Qarzi yukini ko'rsatkichi bu qarzi oluvchi o'rtacha oylik daromadining soliqlar chegirib tashlangandan keyin barcha kreditlari va qarzlari bo'yicha shartnoma to'lovlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ulushi hisoblanadi. Ya'ni talabgorning oylik maoshi to'lovi oladigan kreditni to'lashga mutanosibligi aniqlanadi. Past qarzi yukini ko'rsatkichi qiymati qarzi oluvchining daromadi va xarajatlari balansi mavjud kreditlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida to'lashga imkon berishini ko'rsatadi. Yuqori daraja esa ortiqcha qarzni bildiradi, ya'ni qarzi oluvchi ixtiyoriy oylik daromadining asosiy qismini qarzni to'lashga sarflashga majbur bo'ladi, degani.

Gap shundaki, keyingi yillarda aholining banklar oldidagi kredit majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq xavotirlar oshib bormoqda. Xususan, 2019-2023-yillarda aholining qarzga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi, ya'ni qarzi yukida o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu mazkur davrda banklar tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashning keskin oshishi bilan izohlanadi. Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, bu davrda jismoniy shaxslarni kreditlash 47 foiz o'sgan. Kredit turlari bo'yicha 2023-yil yakuni bilan avtokredit 92 foizga, ipoteka kreditlari esa 25 foizga oshgani kuzatildi. Bir qarashda buning yomon tomoni yo'q. Ammo Markaziy bank tahlillariga ko'ra, aksariyat hollarda aholi o'z daromadining 50 dan 70 foizigacha bo'lgan qismini kreditlarni so'ndirish uchun ishlatmoqda. Bu ularning daromadidagi shoklarga bardoshlilikini kamaytirish orqali to'lovga layoqatsizlik holatini keltirib chiqarishi mumkin. Agar holat tizimli tus oladigan bo'lsa, bank-moliya sektori nobarqarorligiga olib keladi.

Shu kabi xatarlarni kamaytirish bo'yicha xorij tajribasida makroprudensial vositalardan foydalanish ommalashgan. Bu instrumentlarning eng ko'p tarqalgan turi esa aholining qarzi yukini darajasini tartibga solish bilan bog'liq. Bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, ko'p hollarda 40-60 foiz oraliqda o'rnatilgan. Shu bois, bizda ham qarzi yukini darajasi 2024-yil 1-iyuldan boshlab 60 foiz, 2025-yil 1-yanvardan 50 foizdan oshmasligi ko'zda tutilmoqda.



daromadidagi shoklarga qarshi moliyaviy yostiqa sifatida ta'riflash mumkin. Lekin kuzatilayotgan holatlarda qarzi oluvchilar yetarlicha jamg'armani shakllantirmasdan, daromadiga nomutanosib miqdorda kredit olib, uning asosiy qismini ushbu kreditni so'ndirishga ishlatmoqda. Bu yuqorida ta'kidlanganidek, ularning daromadida salbiy o'zgarish, iqtisodiy shoklar, banklar oldidagi majburiyatlar bajarilmasligiga olib kelishi mumkin. Shu bois, yangi talab joriy etilishiga aholi imkoniyatlarini cheklash sifatida qaramagan bo'lardik. Aksincha, qarzi yukini barcha kreditlar kontekstida hisoblashni joriy etish orqali aholi norasmiy daromadini rasmiylashtirishga erishish, o'z daromadini rasmiylashtirgan qarzi oluvchilarni kreditlashni rag'batlantirish, norasmiy daromadni baholashni formallashtirish va banklarni mas'uliyatli kreditlashga jalb etish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, moliyaviy ommaboplikni qo'llab-quvvatlash maqsadida qarzi yukini ko'rsatkichi hisoblanmasligi mumkin bo'lgan holatlar belgilandi. Jumladan, bank tomonidan jismoniy shaxslarga kredit (mikroqarzi) ajratishda mazkur bank tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan barcha kreditlar (mikroqarzlari) sonining eng ko'pi bilan 15 foizigacha bo'lgan miqdorda, mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan kredit (mikroqarzi) ajratishda qarzi qoldig'i yig'indisi bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 50 barobaridan oshmaganda, shuningdek, mikroqarzi ajratishda qarzi qoldig'i yig'indisi BHMning 75 barobaridan oshmaganda hisoblanmasligi yoki inobatga olinmasligi mumkinligi belgilandi.

Yuqorida zikr etilgan nizomdan tashqari Markaziy bankning "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomiga ham tegishli o'zgartirishlar kiritilgan.

ana shunday xatarlarning oldini olishga qaratilgan. Shu joyda aholida moliyaviy savodxonlik darajasi hali yetarli emasligi ko'rinib qoladi. Bugun kredit masalasida duch kelinayotgan muammolarning aksariyati ham shuning ortidan kelib chiqmoqda. Moliyaviy holatimizni to'g'ri baholamasdan yoki e'tiborsizlik bilan yuqori foizli kredit olish, shartnomani tuzukroq o'qimasdan kimdadir kafil bo'lish, keyin esa qarzni to'lashdan boshqa iloj qolmasligi kabilar shular jumlasidan.

Umuman, daromadlarni ikki turga bo'lish mumkin — rasmiy va norasmiy. Rasmiy daromad o'z nomi bilan rasmiy hujjat va manbalarda qayd etiladigan mablag'lar hisoblanadi. Bunday kredit oluvchilarning qarzi yukini ko'rsatkichi belgilangan me'yordan oshmasa, tijorat banklaridan kredit olishda cheklovlar bo'lmaydi. Hatto rasmiy daromadga ega bo'lgan yoki norasmiy daromadini rasmiylashtirgan qarzi oluvchilar bankdan kredit olishda qo'shimcha imkoniyatlar, yengilliklarga ega bo'lishi mumkin. Bu borada qarorlar, albatta, kredit tashkilotlari tomonidan ichki siyosatiga muvofiq mustaqil ravishda qabul qilinadi. Ya'ni kredit tashkiloti qarzi oluvchining moliyaviy holatini va shu orqali kredit tavakkalchiligini to'g'ri baholay olgan holda qarzi oluvchilarga kreditlarni qulayroq shartlarda ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilish huquqiga ega. Ushbu holat norasmiy sektordagi daromad oluvchi qarzi oluvchilar daromadini rasmiylashtirishga undovchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Har holda bu talablar qarzi oluvchilar qarzi yukini ko'rsatkichini hisoblash orqali ular daromadining katta qismi kredit to'lashga sarflanishining oldini olishga xizmat qilinishi ham unutmastik lozim.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.



MILLIY GESLAR KASKADI

NAMANGANNING ELEKTR ENERGIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJINI QOPLAYDI, ORTGANI ANDIJON VA FARG'ONAGA YO'NALTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Yana bir ahamiyatli jihati, ushbu GESlar to'liq yurtimizda ishlab chiqarilayotgan uskuna va texnologiyalar hisobiga quriladi. Ya'ni u mamlakatimizda birinchi milliy GES kaskadiga aylandi. Buning uchun loyiha jamiyatimiz mablag'lari hisobidan mahalliy loyihalashtirish va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda amalga oshirildi. Qolaversa, uning kichik hajmdagi tajribasi o'tgan yili Qiziriq tumanida ishga tushirilgan "Isfara mikroGES-1"da muvaffaqiyatli sinovdan o'tkazildi.

"Norin GESlar kaskadi" loyiha ijrosi doirasida barcha zaruriy tashkiliy-amaliy jarayonlarning asosi yaratilgan. Xususan, innovatsion loyihalar, mahalliyashtirish dasturi doirasida Xitoyning "Zhejiang Jinlun Electromechanic" kompaniyasi bilan hamkorlikda yurtimizda Markaziy Osiyoda ilk bor gidroagregatlarini tayyorlash yo'lga qo'yilmoqda. Endilikda quvvati 40 MVt.gacha bo'lgan gidroagregatlar "Made in Uzbekistan" milliy brendi asosida jamiyatimiz tizimiga kiruvchi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida joylashgan "UGE-JINLUN" qo'shma korxonasida ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yil 31-oktabr kuni o'tkazilgan yig'ilishda gidroenergetika tarmog'ida amalga oshirilayotgan loyihalarning hozirgi holati va istiqbol imkoniyatlarini muhokama qilgan edi. 2024-2028-yillarda gidroenergetika quvvatini 6000 megavattga (2,7 barobar), o'rta yillik ishlab chiqarishni 7 milliard kilovatt-soatdan 17-19 milliard kilovatt-soatga yetkazish bo'yicha 5 yillik maxsus dastur ishlab chiqish va buning uchun sohaga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish vazifasi qo'yildi. Jumladan, Toldiqsoy, Mullalak, Qorong'i-to'g'ay, Yuqori Pskom va Norin yirik GESlarini qurish loyihalari doirasida shunday yo'l tutildi.

Buning uchun gidroenergetikaning yangilangan strategiyasiga asosan, 37 ta istiqbolli loyiha joriy etilishi hisobiga amaldagi ishlab chiqarish miqdoriga qo'shimcha ravishda 3775 megavatt quvvat yaratish, 2028-yilga borib, umumiy energiya hosil qilish hajmini qariyb 3 barobar oshirish lozim bo'ladi.

2024-yilning o'zida esa umumiy quvvati 17 megavattlik 18 ta mikroGES loyihasi ishga tushirish mo'ljallangan. Bu maqsadga erishish uchun huquqiy,



texnik-iqtisodiy asoslar yaratilgan. Jumladan, kichik va mikroGESlarini qurish istagidagi tadbirkorlarga yerni 20 yil muddatga ijaraga berish, ular ishlab chiqarigan elektrni davlat tomonidan kafolati sotib olish tizimi joriy qilingan. Tadbirkorlar belgilangan tarif bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyasi iste'molidan ortgan qismini davlatga kafolati tarzda 1350 so'mdan sotishi mumkin. Bu jamiyat tasarrufidagi energiya hosil qiluvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi tanarxiga nisbatan qariyb 3 (2,7) barobar qiymatga sotish imkoniyatini beradi.



Abdurauq QORJOV, shaharlovchi

Bugungi kunda Namangan viloyatida jami 913 megavatt generatsiya quvvati mavjud. So'nggi uch yilda elektr iste'moli 24 foiz ko'paygan va iqtisodiyot rivoji, aholining o'sishi bilan unga bo'lgan talab oshib boraveradi. Shu bois, hududda jami qiymati 1,1 milliard dollar, quvvati 1 ming 228 megavatt bo'lgan uchta majmua loyihalashtirildi.



Bular yuqorida so'z borgan gidroelektr stansiyalar kaskadi hamda ikkita quyosh elektr stansiyasidir.

Mazkur ikki muqobil elektr inshootlaridan biri — Pop tumanida Germaniyaning "Hyper Partners GmbH" kompaniyasi tomonidan 500 megavatt quvvatli quyosh elektr stansiyasi quriladi. Mazkur loyihaning qiymati 350 million

energiyasiga bo'lgan 5,5 milliard kilovatt-soatlik talabini to'liq qoplaydi. Ortgan 30 foiz elektr quvvati Andijon va Farg'ona viloyatlariga yo'naltiriladi.

O'tgan kuni Prezidentimiz Namangan viloyatida yangi elektr stansiyalari qurilishiga start bergan marosimida mazkur yirik loyihalarning samaradorligi va manfaatli jihatlariga doir ana shunday raqamlar keltirildi.

— Odamlarimiz farovon yashashiga sharoit yaratish yangi O'zbekiston siyosatining asosiy poydevorlaridan biridir. Buning uchun katta-kichik loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish, ularning barqaror faoliyati uchun uzluksiz energiya ta'minoti nihoyatda zarur. Shu ma'noda, bugungi marosim ham tarixiy voqea. Barchangizni shunday yangi loyiha va tashabbuslar bilan tabriklayman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Marosimda 2025-yilda Pop va Uychi tumanlarida umumiy quvvati 200 megavatt bo'lgan elektr energiyasini saqlash tizimlari ishga tushirilishi rejalashtirilgan, ular iste'mol ortgan davrda yagona energetika tizimini rostlash va elektr energiyasini iste'molchilarga barqaror yetkazib berishga xizmat qilishi ta'kidlandi.



Abdug'ani Sanginovning qayd etishicha, yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan, quyosh stansiyalarining keng ko'lmda qurilishi hisobiga energetika tizimida rostlovchi quvvatlarni yaratishga e'tibor qaratilyapti. Ya'ni quyosh, shamol va boshqa energiya hosil qiluvchi manbalarning tabiiy sabablarga ko'ra ishlashi pasaygan paytda ularga GESlar tomonidan rostlovchi quvvatlar qo'shilishi orqali elektr energiyaga bo'lgan talabning barqarorligi ta'minlanadi.

Bu yo'nalishdagi loyihalarni ishlab chiqish boshlab yuborilgan. Xususan, 2023-yil oktabr oyida Xitoyning Pekin shahrida bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" xalqaro forumida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida quvvati 20 megavatt Chorvoq shamol elektr stansiyasini qurish loyihasi Xitoyning 28 million dollarlik grant mablag'larini ajratish bo'yicha kelishuvga erishildi. Uning doirasida yangi avlodga mansub 4 dona, har birining energetik quvvati 5 megavattga teng shamol elektr stansiyasi quriladi. Buning natijasida yillik o'rta 43 million kilovatt-soat qo'shimcha elektr energiyasi ishlab chiqariladi.

"O'zgidroenergo" AJ ayni paytda mamlakatimizning to'rtta hududidagi gidroto'plash stansiyalarini barpo etish ustida ham ish olib bormoqda. Umumiy qiymati 2 milliard dollar, quvvati 1200 megavattga teng bo'lgan 2 ta gidroto'plash elektr stansiyasini Xo'jakent va Yuqori Pskomda qurish rejalashtirilgan. Endilikda Popda ham shunday stansiya quriladi.

Bu kabi muhim ahamiyatga ega yirik loyihalarning texnik-iqtisodiy asosnomasini tayyorlash uchun sohada boy tajribaga ega bo'lgan nafuzli xorijiy hamkorlar jalb etilmoqda. Binobarin, shu yilning o'zida yurtimizda 14 ta quyosh va shamol stansiyasini qurish doirasida 2,6 gigavatt quvvat tarmoqqa ulandi.

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi

Prezidentimiz raisligida shu yil 5-fevralda ijtimoiy sohalardagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan kengaytirilgan yig'ilishda ilm-fan va innovatsiyalarga oxirgi yetti yilda 6 trillion so'mdan ziyod mablag' ajratilgani, lekin ilm-fanda "xarajat - tadqiqot - mahsulot" formulasi ishlmamayotgani alohida qayd etildi.

2022-yil boshida "FERPI HITECH ENGINEER" unitar korxonasi, qurilish-sinov laboratoriyasi, geolaboratoriya hamda Geotopografik loyihalash ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish uchun institutning innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami 844 million so'm yo'naltirildi. Dunyodagi dolzarb muammolarga ilmiy yechim topishning ekotizimi ham aynan shu unitar korxonada orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur korxonada 51 ta ish o'rni yaratilgan. Bugun bu yerda 25 professor-o'qituvchi, 10 doktorant, 4 magistr va 12 talaba faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, 35 dan ortiq talaba hamda magistr va doktorant tadqiqot ishlari bilan band. Qurilish-sinov laboratoriyasida esa talabalar o'nlab yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar bilan mashg'ul.

maqsadida xorijiy tajribani qo'llagan holda 14 ta spin-off korxonasi ochildi. Markazlar xalqaro va milliy mehnat bozorlariga raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan. Shuningdek, Yaponiyaning Willtec kompaniyasi bilan birgalikda xalqaro miqyosda qurilish sohasida maqsadli kadrlar tayyorlash

u uchun Yapon tili va yapon texnologiyalari markazi ham tashkil etilgan.



u uchun Yapon tili va yapon texnologiyalari markazi ham tashkil etilgan.

MUAMMOLARGA ILMIY YECHIM

Seysmik xavfsizlikni ta'minlashning yangi usullarini joriy qilish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish, kuchli zilzilalarni prognoz qilish va ularga tayyorgarlik ko'rishning zamonaviy tizimini amaliyotga tatbiq etish butun dunyodagi eng dolzarb masalalardan biri.

Bu borada institutning qurilish fakulteti professor-o'qituvchilari tomonidan tizimli ishlar qilinmoqda. Qurilish sohasida yangicha g'oyaga ega bo'lgan bilim va malakali, innovatsion taraqqiyot talablariga to'liq javob bera oladigan zamonaviy mutaxassislar tayyorlash maqsadida

"XARAJAT - TADQIQOT - MAHSULOT" ASOSIY MEZON

Hozirgi kunda kompleks tarkibidagi markazlarda 40 dan ziyod doktorant va mustaqil tadqiqotchi, 20 dan ziyod magistr ilmiy izlanishlar qilib, 1 nafar texnika fanlari doktori, 3 nafar texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorining ilmiy dissertatsiya ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi.

Oltiariq tumanida Malayziya investitsiyasi hisobiga quvvati 150 kVt. bo'lgan mikroGESni loyihalash tugatilib, qurilish boshlanmoqda. So'x daryosining O'zbekiston tumanidan oqib o'tuvchi qismida gidroagregat tipidagi mikroGESlar kaskadi qurish loyihasi ishlab chiqilgan. Har biri 200 kVt. quvvatga ega 6 ta mikroGESni o'z ichiga olgan, qiymati 6,2 milliard so'mlik mazkur loyiha tufayli yiliga 345 600 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. So'x daryosining So'x tumani hududidan oqib o'tuvchi qismida ham 8 ta mikroGESni birlashtirgan kaskad tizimi yaratish taklif etilmogda.

Hozir markazning Yevropa Itifoqi tomonidan e'lon qilingan "Sustainable, secure and competitive energy supply (HORIZON-CL5-2022-D3-03)" xalqaro grant loyihasida "Markaziy Osiyoda kichik gidroenergetika tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish" mavzusidagi loyihada ishtirok etish uchun topshirgan arizasi ma'qullangan. Umumiy qiymati 4,5 million yevroga teng loyiha martaqa mamlakatlaridagi mavjud GESlarda (namuna tariqasida bittadan tanlab olinadi) avtomatik boshqaruv tizimini joriy etishga qaratilgan. Farg'ona politexnika instituti uning martaqa bo'yicha koordinatori etib belgilangan.

XORIJIY KORXONALAR BILAN HAMKORLIK

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish, "yashil" energetikani rivojlantirish maqsadida Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti bilan qo'shma markaz tashkil etish rejalashtirilgan. Markazda energetika fakultetida tahsil oluvchi talabalarimiz xalqaro standartlar asosida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan bir qatorda xorij tajribalarini ham o'rganadi. Ikki tomonlama samarali muzokaralar natijasida ta'lim

muassasimiz professor-o'qituvchilari hamda talabalar tomonidan taqdim etiladigan loyihalarga Shimoliy Xitoy texnologiya universiteti tomonidan yiliga umumiy qiymati bir million yuangacha bo'lgan miqdorda investitsiya ajratilishi belgilandi. Bu esa institut olimlarining xalqaro miqyosdagi loyihalarda ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Ta'lim muassasimiz Belarus ilmiy texnika universiteti va uning huzuridagi Politeknik ilmiy-texnologik parki bilan hamkorlikda osteosintez, suyak va tizza bo'g'imlari uchun yuqori texnologik implantlar va endoprotezlar yaratish va ishlab chiqarishga ixtisoslashgan texnopark ochishni rejalashtirmogda.

AMALIYOT, TADQIQOT VA DAROMAD

Institut ilmiy-tadqiqot, o'quv ishlab chiqarish kompleksini tashkil etish va uning moddiy-texnik bazasini boyitish, zamonaviy o'quv laboratoriya xonalarini barpo etish, mavjudlarini ta'mirlash ishlari amalga oshirdi. 2021/2022-o'quv yilida mexanika-mashinasozlik fakulteti huzurida ilmiy tadqiqot, o'quv ishlab chiqarish kompleksi tashkil etildi. Kompleksda kompyuter simulyatsiyasi, intellektual asboblarga asoslangan avtomatlashtirishni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya muammolarini, shuningdek, ta'lim, fan va ishlab chiqarishda reinjirningirni rivojlantirish, gazlantirishga asoslangan innovatsion quyish texnologiyasini joriy qilish va metall mahsulotlar ishlab chiqarish markazlari ish boshladi.

Hozirgi kunda kompleks tarkibidagi markazlarda 40 dan ziyod doktorant va mustaqil tadqiqotchi, 20 dan ziyod magistr ilmiy izlanishlar qilib, 1 nafar texnika fanlari doktori, 3 nafar texnika fanlari bo'yicha falsafa doktorining ilmiy dissertatsiya ishlari muvaffaqiyatli himoya qilindi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishining 240 talabasi ishlab chiqarish hamda malakaviy amaliyot o'tamoqda. Tadqiqotchilarning ilmiy ishlari samarasi o'laroq, intellektual mulk agentligidan 20 dan ortiq dasturiy ta'minot guvohnomasi olandi.

Farg'ona politexnika instituti ta'sischi sifatida tashkil etilgan "FERPI MECH-TECHNO" unitar korxonasi tomonidan hududlardagi yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarishdagi muammolarini aniqlash, detallarni ishlab chiqarishda gazlantirishga asoslangan innovatsion quyish texnologiyasini joriy qilish hamda metall mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida amaliy ishlar qilinmoqda. Korxonada texnologik jihatdan murakkab bo'lgan 28 turdagi mashinasozlik detallarini ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratildi.

Murakkab yuzali detallarga ishlov berish va noteknologik detallar tayyorlashda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish hamda ishlab chiqarish korxonalarini, hududlarda metall importini kamaytirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va tadbirkorlik subyektlariga loyihalashtirish muammolarini yechishga yordamlashish kabi yo'nalishlarda izchil ishlar bajarilmoqda.

Ilm-fan amaliyot bilan uyg'unlashagina, kutilgan samarani bera boshlaydi. Ilg'or xalqaro tajribalardan nafaqat xabardor bo'lib borish, balki ularni puxta o'rganish ham muhim ehtiyoj hisoblanadi. Buning uchun esa katta platforma kerak. Farg'ona politexnika instituti ayni shu mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyatli uddalamogda.

O'ktam SALOMOV, texnika fanlari doktori, professor

Farg'ona politexnika institutini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida innovatsion faoliyatni "xarajat - tadqiqot - mahsulot" tamoyili asosida yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha aniq maqsadlar belgilab olindi. Institutda ilmiy va innovatsion ekotizimni yaratish orqali ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirishga erishish asosiy vazifamizga aylangan. Tadqiqotchi va talabalarning ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari natijalarini ishlab chiqarishga transfer qilish va tijoratlashtirishga yo'naltirishning eng samarali mexanizmlaridan biri oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish orqali spin-off korxonalarini birlashtirish hisoblanadi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, institutda dolzarb va ustuvor yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar kiritish, mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha innovatsion infratuzilma ishlab chiqildi.

Prezidentimiz rahbarligida 2021-yil 16-iyun kuni oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektorda institut va universitetlarning har bir mutaxassislik kafedralari huzurida ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish, ularning o'ziga daromad topish uchun zarur sharoitlar yaratib berish vazifasi yuklatildi.

Bugun institutimizda ilmiy va innovatsion ishlab chiqarish hamda turli sohalarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan 19 ta markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Tili o'rgatish, tayyorlov va malaka oshirish, bino va inshootlarni loyihalashtirish, qurilish materiallari akkreditatsiyasi, media hamda AKT inkubatsiya markazlari, o'quv-ishlab chiqarish majmuasi shular jumlasidan. Yana bir e'tiborli jihati, faoliyatini samarali tashkil etish

Sog'lom ovqatlanish

MAKTAB OSHXONALARI TALAB DARAJASIDAMI?

Inson salomatligining poydevori bolalik davrida qo'yiladi. Ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarning me'yoriy o'sishi, rivojlanishi ularning sog'lom taomlanishi bilan bog'liq. Ratsional ovqatlanish bolalar salomatligini mustahkamlaydi, kasalliklar rivojlanishining oldini oladi.

MAZKUR QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.



Bolalikda ozuqaviy moddalarni yetarli darajada iste'mol qilmaslik esa jismoniy rivojlanish, darslarni o'zlashtirish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir qiladi, surunkali patologiyani yuzaga keltirishga sabab bo'lishi mumkin. Inson salomatligi va quvvatini saqlashning eng muhim sharti to'liq va oqilona ovqatlanishdir. Shu bois, so'nggi yillarda maktabda ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish kun tartibidagi muhim masalalardan biriga aylandi.

Mamlakatimizda bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bosqichma-bosqich bepul ovqat bilan ta'minlash, tajriba-sinov natijalariga ko'ra boshlang'ich sinf (1-4-sinf) o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash tizimini kengaytirish vazifasi qo'yildi.

Ayni paytda bu hududlardagi jami 1243 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasining 1-4-sinf o'quvchilari bepul oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanmoqda.

O'quvchilar maktabda kunda bir mahal ovqatlaniriladi. Ovqatlarni nazorat qilish uchun maktablarda 5 kishilik (direktor, hamshira va ota-onalar vakillaridan iborat) maxsus komissiya tuziladi. Kundalik taomlanish ro'yxati "kundalik.com" platformasi orqali yuritiladi.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasi bilan birgalikda mavsumiy 5 kunlik taomnoma (texnologik kartalari) ishlab chiqilgan bo'lib, taomnomaga yod va

kilokaloriyaga boy yengil oziq-ovqat mahsulotlari kiritilgan. Bunday amaliyotning yo'lga qo'yilgani, albatta, quvonarli. Agar bola ko'p vaqtini maktabda o'tkazishini hisobga olsak, bu joriy tendensiya samara berishi shubhasiz. Bolaning maktabda muvozanatli va to'yimli ovqatlanishi, kun davomida kerakli ozuqa va mineralarni olishi uning hayoti va salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi. Biroq ahvol hamma joyda ham ko'ngildagidek emas.

Maktab oshxonalaridagi holat bilan tanishish maqsadida Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasining Toshkent shahar boshqarmasi bilan birgalikda poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 116-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi oshxonasida bo'ldik. Maktab oshxonasiga kirib borarkanmiz, ta'mirlash ishlari olib borilayotgan oshxonaning bir burchagida toza bo'lmagan mato bilan yopib qo'yilgan stol ustida sotilayotgan mahsulotlarga ko'zimiz tushdi.

Oshxona ta'mirlanayotgan bo'lishiga qaramay, turli pishiriq va shirinliklar tayyorlanib, sotilmoqda. Devordan tushayotgan chang va boshqa zararli moddalar bolalar uchun tayyorlanayotgan taomlarga tushishi maktab ma'muriyati yoki oshxona xodimlarini nahotki qiziqitirmasa?

Tarkibida kolbasa, ketchup va mayonez bo'lgan pissa, xot-dog, sosiska mahsulotlari, lavash, gamburger, "xrustiyashki", chips, energetik va gazli ichimliklar... Maktab oshxonasida bo'lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining kichik bir ro'yxati bu, — deydi Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasining Toshkent shahar boshqarmasi Axborot xizmati rahbari Jonibek Odiljonov. — Ogohlantirishlarga

qaramay, bu mahsulotlar sotuvi davom etayotganini nima bilan izohlashga ham hayronsan.

Oshxona oshpazi ish boshlaganiga endigina ikki kun bo'lgani, hali tartib va taqiqlangan mahsulotlar ro'yxatidan to'liq xabardor emasligini bahona qildi. Muassasa ma'muriyati esa bu haqda ularni doim ogohlantirib kelganini ta'kidladi.

O'quvchilarning sog'lom kamol topishiga erishish uchun ta'lim muassasalarida oshxonalarida tarkibida zararli moddalar bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotilishining oldini olish maqsadida oshxonalarini ijaraga berish bo'yicha komissiya tanlovi tashkil etilgan, — deydi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Sog'lom ovqatlanishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi Shoira Reyimboeva. — Bugungi kunda ushbu tanlov natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan tadbirkor va xususiy tashkilotlar tomonidan maktab oshxonalarini ijaraga olinib, foydalanilmoqda.

Maktab oshxonasida faoliyat yuritayotgan tadbirkor tomonidan jihozlanmagan modernizatsiya qilinishi, zarur quvvatga ega oziq-ovqatni tayyorlash imkoniyati va boshqa holatlar bo'yicha ma'lumot olishga harakat qilindi. Ammo bog'lanishning imkoni bo'lmadi.

Ish bor joyda kamchilik ham bo'lib turadi, — deydi Shoira Reyimboeva. — Ayrim maktablarda oshxona jihozlarning yetishmasligi, taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlarining sotilishini ham istisno qila olmaymiz. Bunday holatda maktab hamshirasi va maxsus komissiya tomonidan dalolatnoma tuzilib, vazirlikka taqdim etilganda Sanitariya-epidemiologik osovishatlik va jamoat salomatligi qo'mitasi xodimlari bilan birgalikda o'rganish ishlari olib boriladi va tadbirkor bilan tuzilgan shartnoma muddatidan oldin bekor qilinadi.

Mazkur maktab ma'muriyati ta'kidlashicha, muntazam yo'l qo'yib kelinayotgan kamchiliklar tufayli tadbirkor bilan tuzilgan shartnoma bekor qilinishi ko'zda tutilmoqda.



Ta'lim muassasasi oshxonasidagi ovqatlar sifatini tekshiradigan brakeraj komissiyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Kamida uch kishi — tibbiy xodim, oshxona xizmatchisi va ta'lim muassasasi vakili har kuni ertalab oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifatini nazorat qilib boradi. Mahsulotlarning sifati va xavfsizligi, ishlab chiqarilgan sanasi, saqlash muddatini kafolatlovchi hujjatlar bo'lishi shart.

Har kuni ish boshlashdan oldin tibbiyot mutaxassisi tomonidan oshxonaning sanitariya jihatdan tozaligi ko'rib chiqilishi kerak, — deydi Jonibek Odiljonov. — Porsiyali taomlarning vazni taomnomada ko'rsatilganidek bo'lmasa yoki aniqlangan pazandalik muammolari bartaraf etilmaguncha ovqat dasturxonaga taqdim etilmaydi. Tayyor taom faqat organoleptik baholab ko'rilganidan keyingina tarqatilishi zarur. Shuningdek, taomnomada taqiqlangan mahsulotlari bor yo'yo'qligi ham jiddiy nazorat qilinishi shart.

Maktab oshxonasida taomnomaga ko'zimiz tushmadi. Balki ta'mir sabab taqiqlangan mahsulotlar ro'yxati ham ko'rsatilmagandir.

Mazkur ta'lim muassasasi shifokori har kuni ertalab oshxonaga kirishadi, sanitariya-gigiyena qoidalariga qay darajada amal qilinayotganini nazoratda ekani, taqiqlangan mahsulotlar bo'lsa, taomnomadan olib tashlashini talab qilinishi ta'kidladi. U holda inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan bu mahsulotlar nega sotilmoqda, degan savolga javob bo'lmadi.

Navbatdagi manzil Uchtepa tumanidagi 123-maktab bo'ldi. Oshxonaga kirishimiz bilan o'quvchilarning qo'l yuvishi uchun sharoit yo'qligi e'tiborimizni tortdi. Oddiy gigiyenik qoida — ovqatlanishdan oldin qo'l yuvish uchun sharoit yaratilishiga shunchalik befarq bo'lish mumkinmi? Oshxona va unda ishlatilayotgan buyumlar ham tozalik talablariga javob bermaydi.

Bu maktabda ham ma'muriyat bir necha bor oshxona xodimlarini taqiqlangan mahsulotlarni sotmaslikka chaqirgan. Ammo oshxona xodimlari buni inobatga olmagani, maktab ma'muriyati esa ularni shunchaki ogohlantirish bilan cheklangan. Vazifalarning, maktab ma'muriyatining asosiy vazifalaridan biri ovqatlanishning bolalar uchun

belgilangan me'yor va standartlariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Ta'lim muassasasi oshxonasida bir necha turdagi taqiqlangan mahsulotlar qatorida yaroqlik muddati ko'rsatilmagan rangli va rangsiz shirin ichimliklar ham sotilyapti.

Ilgari shirin ichimliklarning zarari faqat shakar bilan bog'liq deb hisoblanar edi. Bugungi kunda esa ilmiy tadqiqotlar nafaqat shakarli ichimliklar, balki shirin ta'm beruvchi sun'iy moddalar qo'shilgan ichimliklar ham salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi.

Mutaxassislarning aytishicha, shirin ichimliklar va tarkibida shakar miqdori yuqori bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari odamlar, ayniqsa, bolalar, o'smirlar va yoshlar ratsionida ortiqcha kaloriyaning asosiy manbai bo'lishi mumkin.

JSST hisob-kitoblariga ko'ra, har yili dunyo bo'yab 8 milliarddan ortiq odam nosog'lom ovqatlanish tufayli vafot etadi, — deydi Salomatlik va strategik rivojlanish instituti mutaxassisi Shuhrat Shukurov. — Nosog'lom ovqatlanish kaloriyaning ko'payishi, ortiqcha vazn, semirish kabi kasalliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Buning oqibatida yurak-tomir, qandli diabet kabi yuqumli bo'lmagan kasalliklar rivojlanish xavfi oshadi. Bu esa aholiyning, ayniqsa, bolalar va o'smirlarning sog'lom ovqatlanishini ta'minlashga qaratilgan samarali choralarini ko'rishni talab qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari turi ko'payib borayotgani, oziq-ovqat sanoatida irsiy o'zgartirilgan texnologiyalarning qo'llanilishi bevosita mahsulotlar xavfsizligini ta'minlash uchun ratsional ovqatlanish (sog'lom, balanslangan ovqatlanish) tartibini yanada yaxshilashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, farzandlarimizning asosiy vaqti o'tadigan ta'lim muassasalarida oshxonasida ratsion muvozanatini bo'lishi, sog'lom turmush tarzining asl mohiyatini tashkil etuvchi to'laqonli ovqatlanish uchun sharoit yaratilmas ekan, ularning salomatligini saqlayapmiz, deya olmaymiz.

Shu o'rinda, ota-onalarga aytar so'zimiz: farzandingizga to'g'ri ovqatlanish asoslarini o'rgatish, chunki bu uning o'sishi, falm hayot kechirishi va ko'p yillar davomida sog'lom bo'lishi uchun shart va zarur. Zero, inson salomatligi unda nafaqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlar yo'qligi, balki to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlik holatidir.

Risolat MADIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



27-mart — Xalqaro teatr kuni

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ong-u tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

UNDA HAMMASI TABIIY VA SAMIMIY

HECH BIR SAN'AT TEATRNING O'RNINI BOSOLMAYDI

1961-yili UNESCO huzuridagi Xalqaro teatr instituti tomonidan Xalqaro teatr kuni ta'asis etilgan va 27-mart sanasi yuzdan ziyod davlatlar qatori mamlakatimizda ham keng nishonlab kelinadi. Shuningdek, 2022-yildan yurtingizda 15-aprel — Madaniyat va san'at xodimlari kuni etib belgilandi.

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Xalqaro teatr kuni munosabati bilan har yili uzoq yillik samarali mehnati, boy tajribasi, mahorati bilan boshqalarga ibrat bo'lib kelayotgan soha fidoyilari munosib e'tirof etiladi. Joriy yil ham el ard'og'idagi bir guruh sahna ustalarini "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlash rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbarining yosh rejissyorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Mannon Uyg'ur nomidagi mukofoti ta'asis etish haqidagi taklifi ham ko'plab ijodkorlarni teatrga katta ishonch bilan qadam qo'yishga undasa ajab emas.

Madaniyat vazirligi teatr va sirk faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda mamlakatimizda 41 ta teatr faoliyat yuritadi. Ulardan 12 tasi qo'g'irchoq teatri. O'tgan yili teatrlarga 3,2 million tomoshabin kelgan bo'lsa, bu yil ushbu ko'rsatkichni 3,6 millionga yetkazish rejalashtirilgan.

IJODIY SALOHIYATIMIZ KUCHLI, FAQAT...

Yaqinda Madaniyat vazirligi tomonidan tashkil etilgan matbuot anjumanida jurnalistlarning bugungi spektakllar saviyasi tushib ketayotgani haqidagi savolga Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov shunday javob berdi:

— Teatrlarning hammasida ham siz aytayotgan kamchilik yo'q. Avvalo, saviya deganda niman nazarda tutaymiz? Shaxsan men bu borada faqat mazmuniga emas, texnologiyani ham ko'raman. Vaholanki, bugun namoyish etilayotgan aksariyat spektakllar pishiq-puxta asarlar asosida sahnalashtirilayapti. Tan olish kerak, texnologiya jihatidan orqada qolyapmiz. Ya'ni sahnada zamonaviy texnologik imkoniyatlardan foydalana olmayapmiz. Buning uchun mutaxassislar ham yetarli emas. Jahon teatr sahnalarida, kerak bo'lsa, kema suzaypti, qor yog'yapti, olov yonaypti. Shu darajada real texnologiyalar joriy qilinaypti. Biz ham bu borada bosqichma-bosqich ish olib boraymiz. Joriy yilda texnik xodimlarni chet elda o'qitish, malakasini oshirishga boradiganlar ro'yxati shakllantirilaypti.

Shu ma'noda, umumiy saviyadagi e'tirozga qo'shilaman. To'g'ri, sovet ideologiyasi bilan sug'orilgan asarlar hozir ham yo'q emas, ularni bugungi kun ruhi bilan moslashtirishga imkon berganmiz. Aslida, aktyorlarimiz ilg'or. Bugun teatrlarimiz chet ellarga chiqaypti, ularga yana 1-2 kun qolinglar, boshqa spektakllarni ham namoyish qilinglar, degan takliflar bo'lyapti. Teatrga xorij tajribasi kirib keldi. Turkiya, Ozarbayjon, Gruziya, Buyuk Britaniya, Fransiya va portugaliyalik ijodkorlar bilan hamkorlik o'rnatilib, tajribali rejissyor va rassomlar tomonidan spektakllar sahnalashtirilmoqda. Buni shaxsan men ijodiy salohiyatimiz yetarli ekanidan dalolat deb bilaman.

Bir muddat teatrlarda kassabop spektakllarga berilib ketish davri bo'ldi. Biroq keyingi yillarda teatrlar repertuarida tarixiy mavzuning salmog'i oshdi. Buyuk avlodlarimiz — allomalar, millat fidoyilari, davlat arboblari, lashkarboshilar hayoti va ezgulik uchun kurashini yorituvchi



o'nlab sahna asarlari yaratildi. Xususan, davlat buyurtmasi asosida sahnalashtirilgan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrining "Jaloliddin Manguberdi" baleti, O'zbekiston davlat drama teatrining "Ishlaganday bo'laylik", Andijon viloyati musiqali drama teatrining "Mirzo Ulug'bek", Namangan viloyati musiqali drama teatrining "Usmon Nosir", Farg'ona viloyati musiqali drama teatrining "Shoh Edip", Samarqand viloyati musiqali drama teatrining "Layli va Majnun" spektakllaridagi yangicha ijodiy yondashuv sahna asarining saviyasini oshirishga xizmat qilganini ko'rish mumkin.

O'zbek Milliy akademik drama teatri rejjissyor Asqar Xolmo'minov tomonidan sahnalashtirilgan "Adolat fasli", Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri Doston Haqberdiyev sahnalashtirgan "Qaynona", O'zbekiston davlat drama teatri bosh rejissyori Olimjon Salimov

tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan davlat teatrlariga 40 ta sahna asari uchun 12,5 milliard so'm miqdorida davlat buyurtmasi ajratildi. Bu yil esa 42 ta sahna asari uchun davlat buyurtmasi berilishi rejalashtirilgan.

Yurtimiz teatrlarini jahon talabiga mos jihozlash, raqamli texnologiyalar yordamida tomoshabinlarning teatr san'atiga qiziqishini to'laqonli qondirish, qamrovni keskin oshirish vazifalari yuzasidan Madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon Majidov hamda teatr sobasi vakillari Rossiya Federatsiyasida bo'lib, taniqli menejer Sergey Borisov, yana bir nufuzli kompaniya rahbari Aleksey Ajmegov bilan qator masalalarni muhokama qildi. Kompaniya vakillari bilan tajriba tarzida O'zbekiston davlat Yoshlar teatri texnogen va raqamli texnologiyalar bilan jihozlash loyihasini 4D formatda videotaqdimot tarzida tayyorlashga kelishib olindi.

Badiiy yoritish bo'yicha rassom va mutaxassislarni, ovoz rejissyorlari, videodasturchi, videodizaynerlar va sahna ortidagi texnik xizmat mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash masalalari muhokama qilindi. O'zbek teatrlari yaqin kelajakda texnik jihatdan jahon talabiga javob bera oladigan darajaga yetishiga ishonamiz. Zero, davlatimiz rahbari ham Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil yakunidagi yig'ilishida besh yillik dastur doirasida teatrlar to'liq ta'mirlanib, eng ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinishini alohida qayd etdi.

JONLI IJRONING ZAVQI BO'LAKCHA

Tomoshabinlar qamrovini oshirishda har



tomonidan sahnalashtirilgan "Romeo va Julyetta", Kattaqo'rg'on shahar drama teatri sahna yuzini ko'rgan "Bibixonim" spektakllari ham tomoshabinlar olqishi va e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Davlat teatrlari repertuaridagi spektakllarning assosiy g'oyasi yurtingizda olib borilayotgan islohotlarga hamohang, mardlik va jasurlikka chorlaydigan, Vatanga muhabbat, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan, insoniy tuyg'ulariga yo'g'rilgan turli xarakterlarga ega ekanini anglash qiyin emas.

Shuni ham aytish kerakki, teatrlarga davlat buyurtmasi ajratilishi bilan ular faoliyati ijodiy va moddiy tomondan qo'llab-quvvatlanaypti. Prezidentimizning 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-

yili Navro'z ayyomiga hamohang o'tkazib kelinayotgan "Teatr tomoshalari haftaligi" muhim o'rin tutyapti. Haftalik shukhi bu yil ham ming-minglab teatr muxlislari qalbiga shodlik ulashdi. Yetti kun mobaynida barcha teatrlarda spektakllardan tashqari dekoratsiya va liboslar ko'rgazmasi, ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari hamda teatrlashtirilgan konsert dasturlari namoyish etildi.

Muhimi, qaysi teatrga bormang, gavjum. Yil sayin teatrga ehtiyoj ortib borayotgani sezilyapti. To'g'ri, bir oz madaniyat yetishmayotgandir, buni ham asta-sekin izzga tushirsa bo'ladi. Tartib saqlashga mas'ul xodimlarni shoshirib qo'yayotgan olomon orasida bo'sh joydan noumid bo'lib qaytib ketayotganlar kam. Tik turib bo'lsa-da, tomosha qilayotganlar ham ko'p. Manaman



degan zamonaviy texnikalar qalashib yotgan bugungi kunda odamlarda teatrga tashnalik so'nmagani quvonarli. Chunki teatrdagi hammasi ro'yirost. Teatr aldamaydi, unda fonogramma qilib bo'lmaydi. Hammasi tabiiy, hammasi samimiy. Shunday ekan, sahnasi tabarruk bo'lgan teatrlarimiz o'rindiqlarining liq to'lishi faqat va faqat ma'naviyatimiz, ma'rifatimizni ziyoda etishga xizmat qiladi.

Haftalik bahona ilk bor teatrga kelganlar ham talaygina. Toma-toma ko'l bo'lar, deganlaridek, ularning loqal o'ndan biri kelasi yilgacha teatrimiz doimiy muxlislarga aylansa, bu katta yutuq. Ayni maqsadni ko'zda tutgani uchun ham teatrlarimiz bahor kunlari xalq uchun eshiklarini keng ochdi. O'zbekiston davlat drama teatrining "Jinlar bazmi", O'zbekiston davlat satira teatrining "Padarkush", Muqimiy nomidagi musiqali teatrimiz "Baxt osmondan tushmaydi" kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega spektakllari viloyat teatrlarida ham tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

Andijon viloyati musiqali drama teatri "Shaytonning gapiga kirib", Buxoro viloyati musiqali drama teatri "Xotira bog'i", Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri "Otamdan qolgan dalalar", Samarqand viloyati musiqali drama teatri "Tazarru", Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri "Chorrahadagi odamlar", Farg'ona viloyati musiqali drama teatri "Ahmad Farg'oniy", Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri "Taklif va to'y", Xorazm viloyati musiqali drama teatri "Ko'ngil devori" singari sahna asarlarini taqdim etdiki, hech biri teatr ixlosmandlarini befarq qoldirmadi.

Samarqanddan poytaxtda yashaydigan o'g'linikiga kampiri bilan mehmon bo'lib kelgan 80 yoshli Yorqin ota Ro'ziyev Muqimiy teatriga birinchi marta kelganini, imkoniyatdan foydalanib, boshqa teatrlarga ham borishini aytadi.

— Spektaklda, asosan, yoshlar rol o'ynagan bo'lsa-da, biz, kattalarni ham ta'sirlantirib yubordi. Chunki unda bugungi kundagi eng katta muammo — ayrim yoshlarning vaqtini bekorchilik narsalarga sarflayotgani ko'rsatib berildi. Bunday spektakllarni bolalarimiz ham, kattalar ham ko'proq tomosha qilishi kerak. Oilaviy ko'rsa bo'ladigan tomosha ekan. Oxiri chiroyli yakun topganidan hamma xursand bo'lib ketdi. Baribir artistlar ko'z oldingizda jonli iro qilgan boshqacha-da. Salomat bo'lsam, keyingi yil Navro'zda yana shu teatrga kelaman.

— Ochig'ini aytish kerak, bepul tomoshaga ajratgan vaqtimizni boshqa payt ham topsak bo'ladi-ku! Teatr tomoshasidan o'z-o'zimga shunday deb chiqdim. Oilaviy sayohatlar, tamaddi qilishlarga borganimiz kabi konsert

va teatrlarga borishni ham odat qilishimiz kerak ekan, — deydi andijonlik uy bekasi Gulbahor To'ychiyeva.

Kosonlik Gulnora opa Boymatova esa spektaklni ko'rib, charchoqlari chiqqani, ko'ngli ko'tarilganidan tashkilotchilarga



minnatdorlik bildirdi. Endi teatrga tez-tez borib turishini aytdi. Aksariyat yoshlar esa hadeb telefonga termilib o'tirgandan ko'ra jonli ijroni tomosha qilish zavqiroq ekan, deyishdi.

SAHNA EGALARI NIMA DEYDI?

— Teatr tomoshalari haftaligi boshlanganidan buyon odam to'la zalimizga qarab ko'zim quvnaydi. Odatda 150-200 atrofida tomoshabin keladi. Haftalik doirasida "Qizil qalpoqcha", "Zolushka", "Etik kiygan mushuk", "Zumrad va Qimmat" spektakllari namoyish etilyapti, — deydi O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri yetakchi aktrisasi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Yodgora Ziyomuhamedova. — Ko'pchilik oilaviy kelgan, bo'lar ekan-ku! Bobo, buvilar ham bor. Ishonasizmi, hatto ota-onalar ham spektaklni ko'rib zavqlangani, bolaligi esiga tushgani, ayniqsa, ayrim improvizatsiyalarimizdan maza qilganini aytib ketyapti. Farzandini birinchi marta olib kelayotganlar esa spektakllar qaysi kunlari, qaysi vaqtda qo'yilishini so'radi. Ushbu haftalik har yili tashkil etilayotgani ayni muddabo'lmog'ida. Bir oz og'ir bo'lsa ham ota-onalarga aytishni istardimki, aslida, chipta narxi arzon. Bolangizni oyda bir marta

teatrga olib kelsangiz ham oila byudjetiga deyarli ta'sir qilmaydi. Vaholanki, bugun bolalarimizni falon pullik restoranga olib boraymiz, ularga falon firmalarning liboslarini olib beryapmiz. Bular uchun vaqt ham, pul ham topamiz. Teatrga kelganda esa vaqt tig'iz, sharoit yo'q. Mana shu tushunchani o'zgartiradigan vaqt keldi.

Farg'ona viloyati qo'g'irchoq teatri direktorining o'rinbosari Turg'un Qosimov ham haftalik haqida to'liqlanib so'zлади:

— Aslida, bir martadan qo'yilishi kerak bo'lgan "Badjahl quyoncha", "Xushchaqchaq sichqon", "Laylakcha va qo'riqchi" kabi spektakllar teatr haftaligi davomida tomoshabin ko'payib ketganidan 2-3 martadan qo'yildi. Qayta-qayta o'ynasak-da, charchamayapmiz. Ota-onalarning "Endi bolalarimizni teatrga ko'proq olib kelamiz, bu yerga kelgandan so'ng boshqacha bo'lib qoldi", degan izhorlaridan boshimiz ko'kka yetdi. Ko'pincha bog'cha, maktablarga borib spektakl qo'yardik-da. Bu yerda esa hayratdan ko'zlarini yonib turgan beg'ubor bolalar g'ayratimizni yanada jo'shtiradi.



Spektakl orasida ular bilan muloqot ham bo'ladi. Ertak qahramonlari qanday ekani, qayoqqa ketgani haqida so'rasak, jo'ra bo'lib javob berishadi. Mana shunday katta aktyorligingdan rozi bo'lasan kishi. Ba'zan bolalarni sahnaga olib chiqamiz. Ularning aktyorlar bilan yonma-yon turgandagi hayajonini ko'rsangiz...

— Teatr tomoshalari haftaligi haqida ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qildik. Teatrimiz oldidagi monitorida ham bu haqda muntazam e'lon berib bordik. "Sulton Jaloliddin", "Padarkush", "Ko'ngil devori", "Gumroh", "Oramizdagi gap" kabi spektakllarni odamlar qiziqib tomosha qildi, zal to'lyapti. Ayni mana shu bizga kuch beradi, — deydi O'zbekiston viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori Azimboy Otajonov.

Teatr har qachon, har qanday sharoitda eng ta'sirchan san'at turi sifatida yashayveradi. O'z davrida odamlar ongini teatr orqali tarbiyalashga harakat qilgan va bunga erisha olgan ma'rifatarparvar Abdulla Avloniy teatr haqida juda ko'p va xo'p fikrlar aytgan. Ayniqsa, "Teatr xususida munozara" nomli maqolasidagi quyidagi jumlar hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi: "Tiyotr har bir millatning yamon urf va odatlarini yo'q qilgank uchun, o'zini ahvolini tozlatmak uchun boqadurg'on o'ynasidir".

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1015.
44909 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Gulichehra Durddiyeva
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillim:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy